

536

T41

G.N. UZOQOV  
D.N. MAMEDOVA  
SH.K. YAXSHIBOYEV  
H.A. ALMARDANOV

# TERMODINAMIKA VA ISSIQLIK TEXNIKASI

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI  
«ISSIQLIK ENERGETIKASI» KAFEDRASI**

**TERMODINAMIKA VA  
ISSIQLIK TEXNIKASI**

**fanidan laboratoriya mashg'ulotlari uchun**

**O'QUV QO'LLANMA**

**«HISTORY AND PAGE»  
TOSHKENT – 2022**

UO'K: 37.015.3(075.8)

KBK: 88.4ya73

**Temodinamika va issiqlik texnikasi [Matn]: o'quv qo'llanma.**

– Toshkent: «HISTORY AND PAGE», 2022. – 102 b.

O'quv qo'llanma 5310100–Energetika (tarmoqlar bo'yicha) ta'lim yo'nalishi talabalariga mo'ljallangan bo'lib, unda "Termodinamika va issiqlik texnikasi" fanining o'quv dasturidagi mavzularga doir qisqacha nazariy ma'lumotlar, laboratoriya mashg'ulotlarini bajarish tartibi keltirilgan.

**Tuzuvchilar:**

**t.f.d., prof. G'.N. Uzoqov, katta o'qituvchilar D.N Mamedova,  
Sh.K.Yaxshiboyev, H.A.Almardanov**

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining Muvofiqlashtiruvchi kengashi tomonidan o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etilgan va o'quv jarayonida foydalanishga tavsiya etilgan.

**Taqrizchilar:**

**QarMII "Issiqlik energetikasi"  
kafedrasi mudiri dots.T.A.Fayziyev.  
QarDU "Kasbiy ta'lim" kafedrasi  
mudiri dots. A.A.Vardiyashvili.**

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2021-yil 23-noyabrdagi 500-sonli buyrug'iiga asosan o'quv qo'llanma sifatida nashrga tavsiya etilgan.*

ISBN 978-9943-8560-8-0

© Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti, 2022.  
© «History and page» nashriyoti, 2022.

### **Annotatsiya:**

Sohada yuqori malakali va raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash dolzarb vazifa hisoblanadi. Bu esa o‘z navbatida texnika oliv ta’lim muas-sasalarida talabalarni termodinamika va issiqlik texnikasi laboratoriya ishlarini o‘rganish va bajarish malakasini shakllantirish va nazariy bilimlarini mustahkamlashda laboratoriya ishlarini o‘rganish va bajarish uchun o‘quv qo‘llanmalarini yaratish zaruratini keltirib chiqaradi. Mualliflar tomonidan tayyorlangan ushbu o‘quv qo‘llanma 5310100-Energetika (tarmoqlar bo‘yicha) ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun mo‘ljallangan. Undan 5A310104-“Sanoat issiqlik energetikasi” mutaxassisligida ta’lim oladigan magistrlar ham foydalanishi mumkin.

### **Аннотация:**

Подготовка высококвалифицированных и конкурентоспособных кадров в отрасли является актуальной задачей. Это, в свою очередь, требует создания учебников для изучения и выполнения лабораторных работ в технических вузах с целью развития у студентов навыков изучения и выполнения лабораторных работ по термодинамике и теплотехнике и укрепления их теоретических знаний. Учебник предназначен для студентов специальности 5310100-Энергетика (по отраслям). Также может использоваться магистрами по специальности 5A310104 - «Промышленная теплоэнергетика».

### **Annotation:**

It is important to Train highly qualified and competitive personnel in the field. This, in turn, necessitates the creation of textbooks for the study and performance of laboratory work in technical higher education institutions to develop students' skills in the study and performance of laboratory work in thermodynamics and thermal engineering and to strengthen their theoretical knowledge. This textbook is designed for students majoring in 5310100-Energy (by industry). It can also be used by masters majoring in 5A310104 - "Industrial Thermal Power Engineering".

## MUNDARIJA

Kirish .....	5
Talabalarning laboratoriya ishlarida rioya qilishlari lozim bo‘lgan xavfsizlik texnikasi qoidalari .....	7
1-laboratoriya ishi. Bosim va harorat o‘lchash asboblari .....	9
2-laboratoriya ishi. Havoning izobarik issiqlik sig‘imini aniqlash .....	23
3-laboratoriya ishi. O‘ta qizigan suv bug‘ining massaviy issiqlik sig‘imi aniqlash.....	29
4-laboratoriya ishi. Nam havo tavsifini aniqlash (EHM dasturi orqali hisoblanadi) .....	35
5-laboratoriya ishi. CO-7A kompressori elementlari va ishlash uslubi	44
6-laboratoriya ishi. Izolyatsion materialning issiqlik o‘tkazuvchanlik koeffitsiyentini aniqlash (EHM dasturi orqali hisoblanadi) .....	51
7-laboratoriya ishi. Havo erkin harakatlanganda issiqlik berish koeffitsiyentini aniqlash (EHM dasturi orqali hisoblanadi) .....	58
8-laboratoriya ishi. Yo‘lakli joylashgan quvurlar bog‘lamidan ko‘ndalang oqimning issiqlik berish koeffitsiyentini aniqlash.....	64
9-laboratoriya ishi. Qaynashda issiqlik beruvchanlikni aniqlash .....	71
10-laboratoriya ishi. Nurlanish koeffitsiyentini aniqlash .....	76
Ilovalar .....	83
Adabiyotlar ro‘yxati .....	99

## KIRISH

Energetika inson va jamiyat hayotida muhim o‘rin tutadi, ayniqsa elektr va issiqlik energiyasi iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida keng qo‘llaniladi. Inson sivilizatsiyasining rivojlanishi foydalanilayotgan energiya hajmi va turlari bilan har doim chambarchas bog‘liq bo‘lgan. XX-asr davomida, ayniqsa, so‘nggi 40 yil ichida dunyoda iqtisodiy rivojlanish maqsadida energiyadan foydalanish miqdori ancha oshdi. Elektr energiyasini ishlab chiqarish va issiqlikdan foydalanish tizimlari uchun oxirgi 40 yilda butun insoniyat tarixidagidan ko‘ra ko‘proq organik yoqilg‘i qazib olindi. Bugungi kunda dunyoda yoqilg‘idan foydalanish miqdori yiliga 12 milliard tonna neft ekvivalentini tashkil etadi (taxminan bir kishiga 2 tonna neft ekvivalenti). Xalqaro energetika agentligining ma’lumotiga ko‘ra, 2030 yilgacha har yili birlamchi energiyani ishlab chiqarish sur’ati o‘rtacha 1,7% dan ortib borishi hisoblangan. Neft, tabiiy gaz, ko‘mir va uran kabi qazib olinadigan yoqilg‘i turlari ayni paytda jahon energetika balansining negizini tashkil etadi va yaqin kelajakda ham shunday bo‘lib qoladi.

Bizning mamlakatimizda ham iqtisodiyotning rivojlanishi natijasida yaqin 2030-yilga borib yillik ishlab chiqariladigan elektr energiyasining miqdorini 105 mlrd. kilovatt soatga yetkazish, mamlakat energiya balansida qayta tiklanadigan energiya manbalarining ulushini 18-20 foizga yetkazish va isitish tizimlarida energiya sarfini 2-2,5 baravargacha qisqartirish vazifalari qo‘yilgan.

“2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar Strategiyasi”da iqtisodiyotda energiya hamda resurslar sarfini kamaytirish, ishlab chiqarishga energiya tejaydigan texnologiyalarni keng joriy etish, qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish, iqtisodiyot tarmoqlarida energiya samāradorligini oshirish masalalari ustuvor vazifalar sifatida belgilab berilgan. Yuqorida ustuvor vazifalar ijrosini ta’minlash maqsadida yurtimizda atom elektr stansiyasini qurish, katta quvvatli issiqlik elektr stansiyalarini bug‘-gaz qurilmalari asosida modernizatsiya qilish, fotoelektrik stansiyalar va shamol elektr stansiyalarini barpo etish hamda gidroenergetikani yanada rivojlantirish bo‘yicha loyihalar amalga oshirilmoqda.

Sanoat issiqlik energetikasida issiqliknki hosil qilish, issiqliknki mexanik energiyaga aylantirish va uzatish jarayonlarini amalga oshirishda

zamonaviy issiqlik mashinalari amaliyotda keng qo'llanilmoqda. Zamonaviy issiqlik va texnologik qurilmalarda energiya almashinushi, yoqilg'i sarfini kamaytirish, bug' va suv miqdorini aniqlash, qurilmalarning foydali ish koeffitsiyentini oshirish kabi amaliy masalalarni hal qilishda termodinamika va issiqlik uzatish qonunlari muhim ahamiyatga ega. Issiqlik energiyasini elektr energiyaga aylanishida energiya resurslarini tejash va issiqlikdan turli texnologik jarayonlarda oqilona foydalanish muammolarini yechishda soha mutaxassislari issiqlik texnikasi qonuniyatlari va tenglamalarini o'zlashtirishlari zarur.

Shu sabali ushbu sohada yuqori malakali va raqobatbardosh kadr-larni tayyorlash dolzarb vazifa hisoblanadi. Bu esa o'z navbatida texnika oliv ta'lif muassasalarida talabalarni termodinamika va issiqlik texnikasi laboratoriya ishlarini o'rganish va bajarish malakasini shakllantirish va nazariy bilimlarini mustahkamlashda laboratoriya ishlarini o'rganish va bajarish uchun o'quv qo'llanmalarni yaratish zaruratini keltirib chiqaradi. Mualliflar tomonidan tayyorlangan ushbu o'quv qo'llanma 5310100-Energetika (tarmoqlar bo'yicha) ta'lif yo'nalishi talabalari uchun mo'ljallangan. Undan 5A310104-“Sanoat issiqlik energetikasi” mutaxassisligida ta'lif oladigan magistrler ham foydalanishi mumkin.

# **TALABALARING LABORATORIYA ISHLARIDA RIOYA QILISHLARI LOZIM BO'LGAN XAVFSIZLIK TEXNIKASI QOIDALARI**

Talabalar laboratoriya ishlarini bajarishda bir qancha muhim bo'lgan qoidalarga amal qilishlari lozimdir. Laboratoriya ishlarini bajarish elektr uskunalari yordamida olib borilgani uchun ularni tok bilan jaroxatlanish xavfi bo'ladi. Ma'lumki 40-42 V kuchlanish xavfsiz bo'lib, bu paytda odamdan 0,1-0,3 A gacha tok o'tadi. Shuningdek, 50 mA tok odamni jaroxatlantirishga, 100 mA tok esa o'limga olib keladi.

Umumiy holda talabalar tajriba ishlarini bajarishlari mobaynida lozim bo'lgan tartib qoidalarni keltirib o'tamiz:

- 1) Laboratoriya ishini bajarishdan oldin ish bilan chuqur tanishish kerak.
- 2) Berilgan sxemani va zanjirni yig'ishdan oldin uzib ulagich uzilgan holdaligini tekshirish kerak.
- 3) Sxemani yig'ishda har xil uziq yuliq simlardan, nosoz asboblardan foydalanmaslik kerak.
- 4) Sxemani diqqat bilan yig'gandan so'ng, sxemada qatnashayotgan asboblarda tok bo'lmasligini, yerga ulanganlik darajasi yaxshiligin yana bir bor ko'zdan kechirish kerak.
- 5) Sxemani manbaga ulashdan oldin undagi ochiq qismlari to'la himoyalanishga erishish.
- 6) Laboratoriya ishlari suv bilan ta'minlanish kerak bo'lganda suvni erkin oqish yo'llarini tekshirib ko'rish, shlanglarni butunligiga ishonch hosil qilish kerak.
- 7) Elektr dvigatellari bilan ishslashda soch va kiyimlarni aylanuvchi valdan ehtiyyot qilish lozim.
- 8) Mustaqil tarzda hech qanday sxemaga tegmaslik, hamda uzib ulashni bajarmaslik kerak.
- 9) Laboratoriya ishini boshlashdan oldin rahbarga bajarish tartibini aytib berish va ruxsat olish shart.
- 10) Agar ish bajarish davrida simlarni uzilishi, asbobni to'g'ri ishlamayotganini, hamda noxush hidlar paydo bo'lsa, birinchi navbatda sxemani uzish va tezda rahbarga xabar berish kerak.

Talabalar yuqoridagi qoidalarga rioya etishlari va rahbarning texnika xavfsizligi bo'yicha to'lik tushuntirishlarini diqqat bilan tinglab,

unga amal qilishlari lozim, bu esa tajriba ishini samarali va sifatli bajarilishiga zamin yaratadi.

Ta'kidlab o'tilgan va rahbar tushuntirgan qoidalarni bilib olgandan so'ng talabalar «Xavfsizlik texnikasi» maxsus jurnaliga o'z imzolarini qayd etishlari talab etiladi.

# **1-LABORATORIYA ISHI. BOSIM VA HARORAT O'LCHASH ASBOBLARI**

**Ishdan maqsad:** Bosim va harorat o'lhash asboblarining turlari va ishlash prinsipi xususida talabalarda bilim va ko'nikmalarni hosil qilish.

**Tayanch iboralar:** manometr, vakuumetr, termoelektr termometr, optik pirometrlar, termojuftlar, qarshilik termometrlar.

**Kerakli jihozlar:** Bosim va harorat o'lhash asboblari tuzilishini o'rghanish uchun o'lchov asboblarining umumiy va prinsipial sxemasi, plakatlar, xar xil turdag'i o'lchov asboblaridan namunalar, ishslash prinsipini o'rghanish uchun taqdimot shaklida videoroliklar.

**Taqdimotning bir nechta slaydlari ilovada keltirilgan.**

**Tajriba ishini bajarish uchun quyidagi adabiyotlar bilan tanishib chiqish kerak:**

1. Alimova M.M., Mavjudova Sh.S., Isaxodjayev X.S., Raximjonov R.T., Umarjonova F.Sh. «Issiqlik texnikasining nazariy asoslar» fanidan tajriba ishlari to'plami. Uslubiy qo'llanma., 1-qism.-T.: TDTU, 2006.

2. Umarjonova F. Sh., Isaxodjaev X. S., Mavjudova Sh. S., Alimova L., O., Axmatova S. R. "Issiqlik texnikasi" fanidan laboratoriya ishlari to'plami. Uslubiy qo'llanma. – Toshkent, ToshdTU. 2014 - 94 b.

**Ishning davomiyligi – 4 soat.**

## **I. Umumiylumotlar.**

Harorat o'lhashning quyidagi 2 guruhiga asoslangan asboblar bilan tanishamiz:

I. Harorat o'lhashning bevosa usullariga asoslangan harorat o'lhash asboblariga quyidagilar kiradi:

**a) suyuqlikli shisha termometrlar.**


Shisha suyuqlikli termometrlar haroratni – 200 dan +750 °C gacha bo'lgan oraliqdagi o'lhashlar uchun qo'llaniladi.

**Shisha suyuqlikli termometrlarni ishslash tarzi.** Suyuqlikli termometrlarni ishslash tarzi issiqlikdan kengayishga asoslangan. Suyuqlikli termometrlarni to'ldirish uchun simob, toluol, etil spirti va h.k.lardan foydalaniadi.

Suyuqlikli termometrlar ichida eng ko'p tarqalgani simobli termometrlardir. Ular simobning muhim xossalari tufayli bir qator afzallik-

larga ega, kimyoviy jihatdan toza holda ancha oson olinadi va normal atmosfera bosimida keng haroratlar oralig‘ida (-38,87 °C dan +356,86 °C gacha) suyuq holatini saqlaydi.

Termometrlar vazifasiga va haroratini o‘lchash oralig‘iga qarab shishani turli navlaridan tayyorlanadi. Suyuqlikli shisha termometrlarni konstruktiv shakkiali turli tumandir biroq ushbu xilma – xillikdan ikkita asosiy konstruktsiyasini ajratish mumkin. 1. Tayoqsimon (rasm – 1, a) va 2. o‘rnatilgan shkalalari (rasm – 1, b).



**1.1 – rasm. a) tayoqsimon va b) o‘rnatilgan shkalali termometrlar.**

Tayoqsimon termometrlar (qalin devorli) tashqi diametri 6 – 8 mm bo‘lgan kapillyarga ega bo‘lib u butun termometr idishining diametriga tengdir. Bunday termometrlarda shkala kapillyarning bevosita tashqi sirtiga yoziлади.


Ikkinci konstruktsiyaning harakterli jihatni shundan iboratki, unda shkala kapillyarning sirtida emas balki oq rangli to‘g‘ri to‘rtburchakli shisha plastinadan qilingan bo‘lib u silindrik shaklida idishga payvandalangan kapillyar naycha orqasiga o‘rnatiladi.

Solingen shkalalari termometrlar tayoqsimon termometrlarga qara-ganda inersionlikka ega, ular laboratoriya va ishlab chiqarish sharoitida haroratni o‘lchashga qulaydir. Ko‘pincha suyuqlikli termometrlar metalldan himoya qoplama bilan ta’milnadi. Shisha termometrlar oddiy, katta aniqlikka ega va tayyorlanishi arzon.

### b) Manometrik termometrlar.

Bu turdag'i termometrlarni o'lcovchisi bo'lib naychasimon prujina xizmat qiladi.

Gazli manometrik termometr (2 – rasm) tuzilishi, ishlash tarzi va asosiy texnik xarakteristikalarini qarab chiqamiz.



1.2 – rasm. Manometrik termometrnning umumiy ko'rinishi.

Termometrnning termotizimi: harorati o'lchanadigan muhitga tushurilgan termoballondan 1, kapillyardan 2 va manometrik prujinadan 3 iborat. Termometrnning termotizimi ishchi modda – gaz yoki suyuqlik bilan to'ldiriladi.

Termoballonni qizdirganda yopiq zich (germetik) termotizimda bosim oshadi va natijada prujina deformasiyalanadi (aylana bo'ylab kengayadi) va uning erkin tomoni qo'zg'aladi. Prujinaning erkin tomoni harakati uzatish mexanizmi qizigan sektor (naycha) orqali termometr shkalasidagi ko'rsatuvchining siljishiga aylanadi.

Termotizimda manometrik termometrlar suyuqlik va gazsimon muhitlardagi – 150 dan +600 °C bo'lgan haroratlarni o'lchash uchun qo'llaniladi. Shuni ta'kidlash lozimki, manometrik termometrlar harorat ko'rsatkichini uncha katta bo'limgan masofaga (60 metrgacha) uza-tishga imkon beradi. Bu esa konstruktsiyaning oddiyligiga qaramay katta afzallikdir.


### v) Elektr qarshilik termometrlari.

Qarshilik termometrlari –260 dan +750 °C gacha bo'lgan oraliqdagi harorat ko'rsatkichlarini o'lchashda keng qo'llaniladi. Ba'zi hollarda esa bu termometrlar bilan 1000 °C gacha bo'lgan haroratni o'lchash mumkin. Qarshilik termometrlarni ishlashi – moddalarning harorati

o'zgarishi bilan uning elektr qarshiligi o'zgarishiga asoslangan. Haroratni qarshilik termometri bilan o'lchanayotgan muhitga tushuriladi. Termometr qarshiligini haroratga bog'liqligini bilgan holda termometr qarshiligi o'zgarishi bo'yicha u turgan muhit haroratini bilish mumkin. Qarshilik termometrlarida o'lchan ni muvozanatlashiruvchi ko'priordan foydalaniлади. Qarshilik termometrlarni asosiy detali sinch (Karkas) slyuda – shaffof mineral plastinkalar bo'lib unga sezgir elementning ingichka simi o'raladi. Sezgir element metali sifatida odatda platina yoki mis ishlatiladi. Platina qarshilik termometrlari haroratini  $-260$  dan  $+1000^{\circ}\text{C}$  gacha o'lchan imkonini bersa, mis qarshilik termometrlari esa  $-50$  dan  $+180^{\circ}\text{C}$  gacha o'lchan imkonini beradi.

### g) Termoelektrik termometrlar.

Termoelektrik uslub harorat o'lchanha termoelektrik termometrlardan haroratga qarab termoelektr yurituvchi kuchni muayyan bog'liqliklariga asoslangan. Agar ikkita turli A va B o'tkazgichlardan tashkil topgan zanjirni olsak (3,a – rasm) va o'tkazgichlarni tutashgan bir tomonini qizdirsa zanjirda elektr toki hosil bo'ladi. Hosil bo'lgan elektr tokini yo'nalishi birinchi tutashgan tomonidan (qizitilgan) B dan A ga qizitilmagan tomon A dan B ga, agarda ikkinchi tutashgan tomonini qizitsak elektr tokini yo'nalishi teskari tomonga yo'naladi bu tok elektr toki deyiladi. Bu zanjirning ikkita tutashgan joyini haroratini har xilligi natijasida hosil bo'lgan elektr yurituvchi kuch termoelektrik yurituvchi kuch deyiladi. Ikkita o'tkazgichdan hosil bo'lgan termojuftni kamchiligi shundaki, hosil bo'lgan termo E.Yu.K. ni o'lchan uchun qo'shimcha asbob ulanishi kerak. Agarda bu zanjirga ikki tomonini harorati bir xil bo'lgan uchinchi o'tkazgich ulansa, u holda hosil bo'lgan termo E.Yu.K. ni o'lchan uchun millivoltmetr yoki potensiometr ulanishi mumkin va shu tariqa termojuft hosil bo'ladi. (3,b – rasm).



1.3-rasm. a) A va B tomonli termoelektrik termometr; b) termojuft ko'rinishi.

Termojuftni A va B o'tkazgichlari termoelektrod deyiladi. Haroratni o'lhash uchun termojuftning issiq tomoni termojuftlar tutashgan joyi 1 ni harorat o'lchaydigan muhitga joylashtiriladi. Termojuftning ikkinchi tomoni (sovuz tomon) o'zgarmas haroratga ega bo'lsa, termoEYuK qiymati bo'yicha termojuftning issiqlik tomonini bilish mumkin. Termojuftni darajalashda (gradurovka) uning sovuz tomoni atrof-muhit haroratiga teng bo'lsa asbobning ko'rsatishiga tuzatish kiritish kerak. Ko'rsatilgan harorat qiymatiga atrof – muhit harorat qiymatini qo'shish kerak.

### **Termojuftlar termoelektrod materiallarining tavsifiga qarab ikki guruhga bo'linadi.**

1. Qimmatbaho va oddiy materiallarga qilingan termoelektrodli termojuftlar.
2. Qiyin eruvchi birikmalar, ularning grafit bilan yoki boshqa metallar bilan aralashmasidan tayyorlangan termoelektrodli termojuftlar.

Birinchi guruhga kiruvchi termojuftlar keng tarqalgan bo'lib ular texnologik jarayonlarni kuzatish va ilmiy tekshirish ishlarida qo'llaniladi. Qimmatbaho metallardan tayyorlangan termojuftlarga misol sifatida platinali termojuftni keltirish mumkin, uning termoelektrodi 90% i platina va 10% i esa boshqa metalldan ishlangan.

Oddiy metalldan ishlangan termojuftlarga misol qilib mis – kopel (nikel va mis birikmasi); xromal – allyumin (nikel va allyuminiy birikmasi) va hokazolarni keltirish mumkin. Ikkinci guruh termojuftlarni tayyorlashda disilisid molibden, disilisid volfram, titan karbidi va h.k. ishlatiladi hamda qiyin eruvchi birikmalar qo'llaniladi. Bu guruhga kiruvchi termojuftlar  $3000 \div 3500$   $^{\circ}\text{C}$  gacha bo'lgan haroratni o'lchaydi.

Umuman olganda termojuftlar –  $200$   $^{\circ}\text{C}$  dan  $+ 3500$   $^{\circ}\text{C}$  bo'lgan harorat diapazonini aniqlashga imkon beradi.

### **II. Harorat o'lhashning bilvosita usullariga asoslangan asboblarga quyidagilar kiradi:**


**Bilvosita** o'lhash usullari qizdirilgan jismlarning haroratiga bog'liq ravishda o'zidan nur chiqarish qobiliyatiga asoslangan bu usulga asoslangan o'lhash asboblari nurlanish pirometrлari yoki **pirometr** deb ataladi. Ular texnikaning barcha sohasida qo'llaniladi va  $30$   $^{\circ}\text{C}$  dan  $6000$   $^{\circ}\text{C}$  gacha haroratni aniqlashga imkoniyat yaratadi. Monoxromatik

nurlanish intensivligi o'zgarishiga asoslangan pirometrlar optik pirometrlar deyiladi. To'liq nurlanish quvvatini o'lchashga asoslangan pirometrlar "teng kuchli" pirometrlar deyiladi.

### Piometr turlari.

#### a) "Yo'qoluvchi simli" optik pirometrlar.

"Yo'qoluvchi simli" optik pirometrlar ko'rinvchi spektr maydonida yorug'lik haroratini aniqlashda qo'llaniladi. "Yo'qoluvchi simli" umumsanoat pirometrarning o'lchov intervali  $700^{\circ}\text{C}$  dan  $1600^{\circ}\text{C}$  gacha belgilangan. Yorug'lik haroratini aniqlash – bu pirometrlarda tekshirilayotgan jismning samarali yorug'lik to'lqin uzunligini piometr lampasi simining yorug'ligi bilan taqqoslashga asoslangan. Piometr (4 – rasm) teleskop 5, o'lchash asbobi 8 va manba 9 dan iborat. Piometrning optik tizimi ob'ektiv 1, okulyar 2, qizil yorug'lik filtri 3 va yorug'lik yutib oluvchi oyna 7 dan iboratdir.



1.4-rasm. "Yo'qoluvchi simli" optik piometr.


Ob'ektiv 1 fokusida 5 yoy shaklidagi volfram simi bo'lgan piometrik lampa 4 joylashtirilgan. Optik piometrlarda harorat o'lchash qoidasi quyidagicha: teleskopni nur chiqarayotgan jismga qaratib ob'ektiv buramasini aylantirish bilan harorati o'lchanayotgan jismni aniq ko'rinish dajarasiga keltiriladi. Reostat 6 yordamida simning cho'g'-lanish darajasini o'zgartiramiz va u nurlanish yuzasining fonida yo'qola boradi. Sim yoyining yo'qolishi nurlantiruvchi jism va lampa simi bir xil yorug'likka va demak bir xil haroratga ega ekanliklarini bildiradi.

Agar harorati  $1400^{\circ}\text{C}$  dan yuqori bo'lgan nurlanish yuzasining haroratini aniqlash kerak bo'lsa (volfram simi cho'g'lanishining yuqori chegarasi), unda lampa oldiga yorug'lik yutuvchi oyna 7 o'matiladi. Bu holda o'lchash ishlari issiqlik nurlatgichining so'nmagan yorug'ligini taqqoslash yo'li bilan olib boriladi. Shuning uchun nurlatgichning har-

qanday yorug'lik haroratini o'lchashda dastlab sim  $1400^{\circ}\text{C}$  gacha, keyin esa  $1400^{\circ}\text{C}$  dan yuqori haroratgacha qiziydi.

Qizil yorug'lik filtri 3 ma'lum uzunlikdagi nur to'lqinlarinigina o'tkazadi. Teleskop 5 fokusini moslash paytida yorug'lik filtri chiqarib qo'yilishi mumkin, lekin lampa simining yorug'ligi nurlanish manbaining yorug'ligi bilan tenglashganda u o'z joyiga o'rnatilishi kerak.

**b) Radiatsion pirometrlar.** Ularning ishlash tarzi harorati o'lchanayotgan jism chiqarayotgan nuring issiqlik haroratiga asoslangan. Nurlar konsentrasiyasini (jonlanishi) egik oyna yoki linza 1 orqali bajariladi (5 - rasm).



1.5- rasm. Radiatsiton pirometr.

Issiqlik ta'sirini (sezuvchi) element sifatida radiatsion piometrlarda bir qancha termojufti 3 bo'lgan termobatareyalar qo'llaniladi. Radiatsion piometr qo'zg'almas diafragmaga ega bo'lGANI uchun 2 - fokus shakli to'g'rilanishi uchun harakatlanuvchi okulyar 4 va rangli yoki xira himoya oynasi 5 o'rnatilgan bo'lib, u yuqori haroratni o'lchashda ko'z nurni himoya qiladi. Radiatsion piometrlar  $400^{\circ}\text{C}$  dan  $3500^{\circ}\text{C}$  gacha bo'lgan haroratni aniqlashga imkon beradi.

### Bosim ko'rsatkichini aniqlovchi asboblar.

Bosim deb birlik yuzaga teng ta'sir etuvchi va shu yuzaga yo'naltirilgan kuchga aytiladi.

Bosim paskalda o'lchanadi, paskal yuzasi  $1 \text{ m}^2$  bo'lgan jismga 1 nyuton kuch bilan teng ta'sir etuvchi kuchga aytiladi yoki  $1 \text{ Pa} = 1 \text{ N/m}^2$  bu yerda  $1 \text{ N} = 1 \text{ kg/sm}^2$  bosim birligi bo'lib paskal darajalari yoki ulushlari ham keltirilishi mumkin.

$$1 \text{ kPa} = 10^3 \text{ Pa}$$

$$1 \text{ MPa} = 10^6 \text{ Pa}$$

$$1 \text{ mPa} = (\text{millipascal}) = 10^{-3} \text{ Pa} \text{ va boshqalar.}$$

Shuningdek ayrim adabiyotlarda bosim birliklari quyidagilarga tenglashtirib berilishi mumkin:

$$1 \text{ kgs/m}^2 = 1 \text{ mm. sim. ustuni} = 9,8066 \text{ Pa}$$

$$1 \text{ kgs/sm}^2 = 98,066 \text{ kPa} = 0,09066 \approx 0,1 \text{ MPa}$$

$$1 \text{ atm} = 101,325 \text{ kPa} = 760 \text{ mm. sim. ustuni}$$

$$1 \text{ mm. sim. ustuni} = 133,322 \text{ Pa}$$

$$1 \text{ bar} = 0,1 \text{ MPa} \text{ yoki } 10^5 \text{ Pa}$$

Bosim quyidagi asosiy turlarga bo'linadi:

1. Absolyut bosim (absolyut "0" da ya'ni absolyut vakumdan hisoblanuvchi bosim).

2. Ortiqcha bosim. Atmosfera (barometrik) bosimdan ortiqcha bo'lgan va monometr yordamida ko'rsatiladigan bosim.

3. Barometr ko'rsatayotgan atmosfera yoki "Barometrik" bosim.

Ishlash jarayoniga qarab bosim aniqlovchi asboblar suyuqlikli, prujinali, porshenli turlarga bo'linadi. Suyuqlik asboblarida aniqlanayotgan bosim suyuqlik ustuni bosimi bilan belgilanadi. Bundan ustun balandligi aniqlanayotgan bosim qiymatini ko'rsatadi. Prujinali asboblarda aniqlanayotgan bosim prujinaning egiluvchanligibilan belgilanadi. Bosimni aniqlovchi qiymat bo'lib prujina elementining deformasiyasi xizmat qiladi. Porshenli monometrlarda aniqlanayotgan bosim porshen yuzasiga ta'sir etuvchi og'irligi bilan belgilanadi.

### Bosim o'chovchi asboblarning tuzilishi va ishslash jarayoni.

#### 1. Suyuqlik asboblari


Suyuqlikli monometrlar bosim o'chovchi asboblar ichida eng oddisi bo'lsa ham yuqori aniqlik darajasiga ega. Bu monometrlarning kamchiligi shundan iboratki ular yordamida uncha katta bo'lmagan bosimlarni o'lhash mumkin.

a) **U-shakli monometrlar** bo'lib, ular 1.6 – rasmda ko'rsatilganidek U harfi shaklida egilgan shisha naychadan iborat. Naycha shkalalni taxtaga o'rnatilib yarmigacha suyuqlikka to'ldiriladi. Agar naychaning bir uchuni bosim aniqlanishi kerak bo'lgan hajmga biriktirilib ikkinchi uchi ochiq qoldiriladi. Bunday monometrda bir tomonidagi suyuqlik ko'tarilib ikkinchisida pasayadi. Suyuqlik balandliklari o'rtasidagi farq bosim qiymatini bildiradi:  $P_{\text{ort}} = hg (\rho - \rho_c)$ , Pa

bu yerda g – erkin tushish tezlanishi;

h – suyuqlik balandliklari farqi;

$\rho$  – suyuqlik zichligi .



1.6 – rasm. U – simon manometr.

Agarda  $\rho < \rho_c$  bo'lsa, tenglama quyidagi ko'rinishni oladi.  $P_{\text{ort}} = \rho gh$  asosan U shaklli monometr bilan bosim mm, simob ustuni, mm, suv ustuni birliklarda aniqlanadi. Chunki ishchi jism – (suyuqlik) sifatida suv yoki simob qo'llaniladi.

mm simob ustuni, mm.suv.ustunidagi bosim qiymatini Pa ga aylantirish uchun 133,3 ga va 9,81 ga ko'paytiriladi.


U - shaklli monometrlar bilan aniqlanishi lozim bo'lgan eng yuqori bosim naycha uzunligi va shishaning mustahkamligi bilan belgilanadi.

U shaklli monometrlar bilan 200 kPa dan yuqori paskaldan kamdan kam aniqlanadi. U shaklli monometrlar yordamida siyrakli yoki vakuumni aniqlash uchun qo'llash mumkin. Buning uchun naycha bir uchuni siyraklik aniqlanishi lozim bo'lgan sirtga biriktiriladi bir uchi ochiq qoldiriladi. Agar asbob ikkala uchini ham bosimi aniqlanishi lozim bo'lgan sirtlarga biriktirilsa unda suyuqlik balandliklari farqi ikkala sirtlarning har xil bosimini ko'rsatadi. Bunday monometrlar diffirinsial monometrlar yoki difmonometrlar deyiladi.

**b) Idishli manometrlar:**

U – shaklli monometrlardagi asosiy kamchilik hisoblangan ikki marta o'lhash jarayoni idishli monometrlar deb ataluvchi monometrlarda yo'qolgan. Bu monometrlarning U shaklli monometrlardan farqi shundaki uning bir naychasi keng va qisqa idishdan ikkinchisi esa ingichka naychadan tuzilgan. Ishchi suyuqlikni qisqa idishga o'lchov shkalasidagi 0 belgisiga teng qiymatga kelguncha quyiladi. Ortiqcha bosimni o'lhash vaqtida ob'ektni naycha orqali asbob idishi bilan birlashtiriladi. Siyraklikni o'lhashda esa o'lchov naychasi bilan birlashtiriladi. Bosimlar farqini o'lhashda katta bosim idishga kichik

bosim o'lchov naychasi bilan birlashtiriladi. Idishli monometrlar o'lhash oralig'i 0 dan 200 kPa gacha (1.7 – rasm) bosimni o'lchaydi.



**1.7 – rasm. Idishli monometr.**

#### v) Mikromonometrlar:

Mikromonometrlarni laboratoriya va sanoat korxonalarida issiqlik kuchlanish uskunalarini sinash jarayonlarida havo va agressiv bo'limgan gazlarning kichik bosimlarini siyrakligini bosim farqlarini o'lchaniladi. Mikromonometrlarning eng sodda turi bu egilgan nayli monometr bo'lib o'lchov naychasi gorizontal yoki vertikal emas balki burchak ostida o'rnatilgan idishli monometrlardan iborat (8 – rasm).


Bu holda  $h = l \sin \alpha$

Bu yerda:  $h$  – o'lchanayotgan bosim suyuqlik ustuni balandligi mm;  
 $l$  – egilgan naychadagi suyuqlik ustuni uzunligi.

Egik naychani monometrga misol qilib o'lhash chegarasi 25, 40,

63, 100 mm suv ustuni bo'lgan yagona parametrlarni keltirish mumkin.

Bu asboblar o'lhash xatoligi  $\pm 1,5\%$ .



**1.8 – rasm. Mikromonometr.**

Laboratoriya sharoitida yuqori aniqlikda o'lhash uchun va ko'rsatmali asbob sifatida maxsus konstruktsiyali asboblar egilish burchagi o'zgaruvchan nayli MKK turdag'i mikromonometrlar qo'llaniladi. Bu turdag'i asboblar yon tomonga o'lhash shkalasi belgilangan shisha naycha 2 bilan biriktirilgan keng idishdan 1 iborat. Idish yustament 3 o'rnatilgan o'lhash naychasi 2 buriluvchi kronshteyn 4 ga o'rnatilgan u turli burchak ostida naychani o'rnatish imkonini beradi.

0,1:0,2:0,3:0,4 sonlari naycha o'rnatilgan burchakka mos shkala ko'rsatkichi aniqlik darajasi qiymatlaridir. O'lchov asbobi o'rnatilishi tekisligini ko'rsatuvchi 2 ta vint bilan ta'minlangan. O'lhash naychasida suyuqlikni shkalasidagi 0 belgisiga keltirish uchun siqib turuvchi uskunalar o'rnatilgan.


Minus ko'rsatkichini 0 ga keltirish uchun idish 1 dagi suyuqlik sathini qurilma 5 yordamida siqib turuvchi 6 bilan bog'langan vint qurilmasi 7 yordamida siqib turuvchisi 6 naychadagi suyuqlik sathi 0 belgisiga urilmaguncha buraladi. Asbob qopqog'ida ko'p yo'lli jumrak 8 o'rnatilgan bo'lib u idish yoki naychani berilgan sirtga bosim yoki siyraklik o'lchanishga qarab o'lhashga xizmat qiladi. MMN turidagi mikromonometrlar o'lhash chegarasi 0 – 120, 0 – 150, 0 – 250 mm suv ust. qilib ishlab chiqariladi.

### **Prujinali bosimni o'lchaydigan asboblar:**

Mexanik prujinali monometrlarning ishlash prinsiplari turli xil egiluvchan elementlar nayli prujinalar silfonlar va h.k. larning deformasiyasiga asoslangan.

**Nay prujinali manometrlar.** Bosim va siyraklikni o'lhashda amalda mexanik monometrlar ichida bir o'ramali nay prujinali (Burdon prujinasi) monometr keng tarqalgan.

Bunda egiluvchan element bo'lib, buning uchun eleptik kesimli qabariq yoyi  $180^{\circ}$  –  $270^{\circ}$  ni tashkil etuvchi yassi nay xizmat qiladi. (1.9 – rasm).



1.9 – rasm. Nay prujinali manometr.

Manometr trubkasining bir uchi kavsharlangan bo'lib, ikkinchi uchi o'lchanishi lozim bo'lgan sirtga maxkamlab qotiriladi. Manometr trubkasi korpus ichiga o'rnatilgan. Ortiqcha bosimni trubka ichki qismiga yuborilganda uning yoy shakli to'g'rilanib boradi natijada ulangan qismi o'z joyidan qo'zg'aladi. Trubka uchining qo'zg'alishi uzatish mexanizmlar yordamida moslamaga uzatiladi (strelkaga) u esa o'z navbatida burilib kerakli bosimni ko'rsatadi. Manometrik trubkaning deformatsiyasi natijasida uning ko'ndalang kesimi shaklini o'zgarishiga asoslanadi.

### III. Tajriba ishini bajarish tartibi.

Ko'rib chiqilgan asboblar laboratoriya qurilmasiga o'rnatilgan. Laboratoriya ishini bajarish tartibi quyidagilardan iborat:

1. Suyuqlik bilan ishlaydigan va mexanik manometrlarni tuzilishi va ishlash usulini o'rganish.
2. Kompressordan keladigan havo quvurlaridagi kran (ventil)larni tekshirish zarur.
3. Kompressorni ishlatib, kompressor ressiverida (havo yig'adigan idish) 1-1,5 at.gacha havoni siqib, keyin kompressor to'xtatiladi.
4. Havo yuruvchi quvurga kran (ventil)ni ochib, laboratoriya qurilmasiga siqilgan havo yuboriladi.

Differensial manometr yordamida bosimlar farqi o'lchanadi.

Mikromanometr va chashkali manometrlar ulangan kranlarni ochib quvurdagi bosim o'lchanadi.

Vakuum nasosni ishlatib, vakummetrda vakum bosim o'lchanadi va vakum nasosni o'chirib, kranlar yopib qo'yiladi.

Haroratni o‘lchaydigan asboblar bilan tanishib, ularni chizib olib, ishlashini tushuntirib berish.

Xonaning haroratini har xil termometrlar bilan o‘lchab olish va uni Kelvin shkalasida ifodalash.

#### **IV. Tajriba natijalarini yozish uchun jadvali.**

**1.1-jadval**

Nº	t, °C	T, K	P <sub>VAK</sub> mm.suv.ust	P <sub>BAR</sub> mm.sm.ust	P <sub>ABS</sub> atm
1					
2					
3					

#### **V. Ishning hisoboti.**

Hisobot quyidagilardan iborat bo‘lishi kerak:

1. Manometrlarni qisqacha tavsifi.
2. Manometrlarning chizma tasviri.
3. Haroratni o‘lhash uchun qanday usullar bor.
4. SI sistemasi va texnik sistemasidagi harorat shkalasini aytib bering.

#### **VI. Nazorat savollari.**

1. Harorat o‘lchovchi asbob deb qanday asbobga aytildi?
2. Termometrlarning qanday turlari bor?
3. Termometrlardan qayerlarda foydalaniladi?
4. Bosim va uning o‘lhash asboblarini aytинг?
5. Termometr va monometrlarni afzalliklari hamda kamchiliklarini sanab o‘ting?


## **ILOVALAR.**

Illova 1



### Zamonaviy harorat o'lchash asboblarining umumiyo'q ko'rinishi.

Ilova 2



**Zamonaviy bosim o'lchash asboblarining umumiy ko'rinishi.**

## **2-LABORATORIYA ISHI. HAVONING IZOBARIK ISSIQLIK SIG'IMINI ANIQLASH.**

**Ishdan maqsad:** Havoning izobarik issiqlik sig'imi aniqlash bo'yicha talabalar malakasini oshirish.

**Tayanch iboralar:** issiqlik sig'imi, havoning sarfi, rotametr, manometr.

**Kerakli jihozlar:** Havoning izobarik issiqlik sig'imi aniqlash uchun qurilma chizmasi, ishlash prinsipini o'rganish uchun taqdimot shaklida videoroliklar.

**Taqdimotning bir necha slaydlari ilovada keltirilgan.**

**Tajriba ishini bajarish uchun quyidagi adabiyotlar bilan tani-shib chiqish kerak:**

1. Alimova M.M., Mavjudova Sh.S., Isaxodjayev X.S., Raximjonov R.T., Umarjonova F.Sh. «Issiqlik texnikasining nazariy asoslari» fani-dan tajriba ishlari to'plami. Uslubiy qo'llanma., 1-qism.-T.: TDTU, 2006.

2. Zohidov R.A., Alimova M.M., Mavjudova Sh.S., Issiqlik texnika-sining nazariy asoslari. O'quv qo'llanma.-Toshkent: O'zbekiston fayla-suflari milliy jamiyatni nashiriyoti, 2010.

**Ishning davomiyligi – 4 soat.**

### **I. Umumiy ma'lumotlar.**

Termodinamikaning differensial tenglamalari moddalarning kalorik, ya'ni issiqlik holati ( $i$ ,  $u$ ,  $c_p$ ,  $c_v$ ) xususiyatlarini termodinamik parametrlar va moddalarning asosiy termodinamik xossalari termik kengayuvchanlik  $\left(\frac{\partial \vartheta}{\partial T}\right)_p$ ;  $\left(\frac{\partial p}{\partial T}\right)_v$  lari orqali ifodalash imkonini beradi.

Shunday qilib, real gazlarning kalorik xususiyatlarini to'g'ridan to'g'ri eksperimental aniqlash shart emas, chunki o'chashlar anchagina xatoliklar bilan bog'liq. Asosiy differensial tenglamalar quyidagi ko'rinishga ega:

**Entalpiya uchun**

$$\left(\frac{\partial i}{\partial T}\right) = -T \cdot \left(\frac{\partial \vartheta}{\partial T}\right)_p + \vartheta \quad (2.1)$$

**Issiqlik sig'imi uchun**

$$\left( \frac{\partial c_p}{\partial P} \right)_T = -T \cdot \left( \frac{\partial^2 g}{\partial T^2} \right)_P \quad (2.2)$$

$$\left( \frac{\partial c_s}{\partial V} \right)_T = -T \cdot \left( \frac{\partial^2 P}{\partial T^2} \right)_s \quad (3.3)$$

Shunday qilib, masalan, (2.2) tenglamada real gazning issiqlik sig‘imi  $c_r$  qiymatni berilgan xaroratda va termik kengayuvchanlikni  $\left( \frac{\partial c_g}{\partial V} \right)_T$  eksperimental qiymatlari berilgan bo‘lsa  $c_r$  ni quyidagi formuladan aniqlash mumkin:

$$c_p = c_{p_0} - T \int_{p_0}^p \left( \frac{\partial^2 g}{\partial T^2} \right)_P \cdot dP \quad (2.4)$$

(2.1) va (2.3) tenglamalardan amaliy hisoblar uchun foydalanish mumkin, moddalarining asosiy termodinamik xossalarni eksperimental yo‘l bilan yoki ularning holatlarini hisoblash mumkin bo‘lgan tenglamalar orqali aniqlash mumkin. Real gazlarning eng sodda holat tenglamasi bo‘lib, Van – der Vals tenglamasi hisoblanadi:

$$\left( p + \frac{a}{g^2} \right) \cdot (g - b) = R \cdot T \quad (2.5)$$

Tenglama (2.5) molekulalarni oxirgi xajmini xisobga oluvchi tuzatma  $b$  ni va ularning o‘zaro tortishish kuchlarini o‘ziga oluvchi bosim  $a/g^2$  tuzatmasini nazarda to‘tadi. Alovida moddalar uchun doimiylar a va b ni kritik parametrlar orqali aniqlanishi mumkin.

Kritik bosim  $P_{kr}$  va kritik xarorat  $T_{kr}$  orqali quyidagi formulalar orqali aniqlanadi:

$$a = \frac{27R^2 \cdot T_{kr}^2}{(64P_{kr})}; \quad b = \frac{R \cdot T_{kr}^2}{(8P_{kr})} \quad (2.6)$$

Gaz doimiysi esa quyidagi tenglamadan aniqlanadi.

$$R = \frac{8314,3}{\mu} \quad (2.7)$$

Van–der–Vaals tenglamasining aniqligi yuqori emas, shuning uchun xozirgi paytda gazlar holat tenglamasining nazariy asoslangan virial ko‘rinishidagi zichlik  $\rho$  darajalari bo‘yicha siqiluvchanlik koefisienti Z qatoriga yoyilgan yagona holat tenglamasidan ham foydalaniladi.

$$\frac{P_g}{R \cdot T} = A + \beta\rho + c\rho^2 + \delta\rho^3 \quad (2.8)$$

Bunda:  $\rho = \frac{1}{g}$ ;  $\beta$ ;  $c$ ;  $\delta$ ; ... - ikkinchi, uchinchi, to‘rtinchi va h.k. deb ataluvchi virial koefisientlar.

Tenglamadagi har bir virial koefitsiyentlarni gazning molekulyar xususiyatlari asosida aniqroq asoslash mumkin.

Ikkinchchi virial koeffisient  $V$  ikki molekulaning o'zaro ta'siri natijasida ideal gazning holat tenglamasidan og'ishni hisobga oladi, uchinchi koeffisient esa uchta molekulani o'zaro ta'sirini hisobga oladi, va h.k.

Shunday qilib, virial holat makroskopik eksperiment natijalarini tenglamasi molekulalarning o'zaro ta'siri nuqtai-nazaridan tushuntirib beradi. Real moddalarning termodinamik hossalarini o'rganishning eksperimental usullari holat tenglamasining varial koeffitsiyentlarini aniqlashga va o'rganilayotgan moddaning termodinamik xususiyatlarini hisoblashda keltiriladi. Virial koeffitsiyentlarni tajribada aniqlash uchun bosim  $p$ , harorat  $t$  va solishtirma hajmni  $v$  o'chash lozim bo'ladi. Entalpiya va issiqlik sig'imini tajribada kalorimetrik bilan aniqlanadi. O'rganilayotgan modda miqdori oldindan ma'lum kalorimetrik idishga joylashtiriladi. Bug' va gazlarning issiqlik sig'imini aniqlash paytida oqizuvchi kalorimetrlardan foydalaniladi, chunki kalorimetrik detallarini qizitishga sarflanayotgan issiqliknini va issiqlik yo'qotishlarini moddaning kalorimetrik orqali o'tayotgan miqdorini oshirish hisobiga anchagini kamaytirish mumkin.

Issiqlik sig'imini quyidagi ifodadan aniqlash mumkin:

$$\bar{c}_p = \frac{Q}{m \cdot (t_2 - t_1)} \quad (2.9)$$

Bunda  $Q$ -moddaga vaqt birligi ichida berilayotgan issiqlik, J/s miqdori;  $m$ -moddaning massaviy sarfi (kg/sek);  $t_1$ ,  $t_2$  – tajribaning boshlang'ich va oxirgi harorati °C.

## II. Ishning tartibi.

Havoning o'zgarmas bosim ostida o'rtacha solishtirma issiqlik sig'imini xona harorati 20° dan 60 °C gacha bo'lgan oraliqda aniqlash.

## III. Tajriba qurilmasining tavsifi.

Qurilmaning ishchi qismi bo'lib, issiqlik yo'qotishlarni o'zi sarflaydigan oqizuvchi kalorimetrik hisoblanadi (1-rasm). Kalorimetrik 2-ning sirt tanasi ko'p yo'lli issiqlik almashinuv apparatini tashkil qiladi, chunki ichida shisha naychada 4 elektr qizdirgich joylashtirilgan.


Havoni oqimi tashqi kanallarda adiabatik, ya'ni issiqlik almashmaydigan sharoit yaratib beradi. Kalorimetrik qizdirgichga berilayotgan elektr toki kuchlanishini voltmetr 6, tok kuchini ampermetr 5 bilan o'chanadi va avtotransformator yordamida sozlanadi.

Kalorimetrnning kirish va chiqishdagi havo haroratini TXK termoparalar 7 bilan o'lchanadi. Termoparalardagi elektr yurituvchi kuch potensiometrda (millivoltmetrda) 9 da qayd qilib boriladi. Shamolparrak 1 havoni kalorimetr orqali harakatini ta'minlaydi. Havoning sarfi to'siq 10 bilan rostlanadi, bosimlar farqi esa U - simon manometr bilan o'lchanadi.

#### IV. Tajribani bajarilish tartibi.

Shamol parrakni yurgizib, quvurdagi to'siq ochiladi. Kalorimetr qizdirgichi yoqiladi. Avtotransformator yordamida o'qituvchi tomonidan berilgan boshlang'ich kuchlanish o'rnatiladi. Ampermetr va voltmetr ko'rsatkichlari qayd qilib boriladi.

Turg'un holat o'rnatilgunga qadar ko'tiladi, ya'ni kalorimetrnning kirish va chiqishdagi havo haroratini qayd qilib boruvchi potensiometrning o'zgarmas ko'rsatkichlarini harakterlaydigan holatga va o'lchov asboblarining ko'rsatkichlarini yozib olishga o'tiladi. Barometr yordamida atrof muxitning bosimi o'lchanadi. Bosimlar farqi  $\Delta p$  bo'yicha va standart diafragma uchun berilgan jadvaldan havo sarfi aniqlanadi.



**2.1-rasm. Tajriba qurilmasining umumiy ko'rinishi.  
V.O'lchov natijalariga ishlov berish.**

Tajriba natijalari bo'yicha havoning bosimi o'zgarmas bo'lgandagi o'rtacha solishtirma Issiqlik sig'imini (9) ifodadan aniqlash zarur. Tajriba haroratlari past bo'lganligi tufayli kalorimetrdagi Issiqlik yo'qo-

tishlari kichik bo'ladi, shuning uchun ularni inobatga olmasa ham bo'ladi.

- Havoning soatbay sarfini quyidagi ifodadan aniqlaymiz:

$$M = 0,01252 \cdot \alpha \cdot \varepsilon \cdot \kappa^2 \cdot d^2 \cdot \sqrt{\Delta p \cdot \rho} \quad \text{kg/soat}; \quad (2.10)$$

bunda,  $\alpha$  - sarfiy koeffisient;

$\varepsilon$  - havoning kengayishini hisobga oluvchi tuzatish koeffisienti;

$k$  - diafragma va quvurlarni Issiqlikdan kengayishini hisobga oluvchi tuzatma koeffisienti;

$d$  - diafragma teshigi diametri, mm;

$\Delta p$  - diafragmadan oldingi va keyingi bosimlar farqi;

$\rho$  - havoning diafragmagacha bo'lgan zichligi, kg/m<sup>3</sup>.

- Havoga berilayotgan Issiqlik miqdorini aniqlaymiz:

$$Q = U * J = U^2 / R \quad (2.11)$$

3. Kalorimetrnning kirish va chiqishidagi haroratlar ayirmasini aniqlang.

$$\Delta t = t_2 - t_1 \quad (2.12)$$

- Havoning o'rtacha izobarik issiqlik sig'imini hisoblang.

## VI. Tajriba natijalarini yozish uchun jadvali.

2.1-jadval

Nº	t <sub>1</sub> , °C	t <sub>2</sub> , °C	U, V	I, A	R, Om	V, m <sup>3</sup> /s	P <sub>VAK</sub> , mm.suv.ust	P <sub>BAR</sub> , mm.sm.ust	P <sub>ABS</sub> , atm
1									
2									
3									


## VII. Ish bo'yicha hisobot.

Hisobot quyidagilardan iborat bo'lishi kerak:


- Ishning qisqacha tavsifi.
- Qurilmaning prinsipial sxemasi.
- Havoning izobarik issiqlik sig'imini aniqlash uchun qurilma prinsipial sxemasini chizish.

## VIII. Nazorat savollari.

- O'rtacha issiqlik sig'imi nima?
- Ushbu ishda atrof muhitga issiqlik yo'qotishlar hisobga olinadimi?
- Havo sarfi qanday o'lchanadi?
- Real gazlarning qanday holat tenglamalarini bilasiz?



Zamonaviy sarf o'lchagichlar.



Zamonaviy bosim o'lchash asboblari.

### **3- LABORATORIYA ISHI. O'TA QIZIGAN SUV BUG'INING MASSAVIY ISSIQLIK SIG'IMI ANIQLASH.**

**Ishdan maqsad:** Tajriba o'tkazish, o'lchash natijalariga ishlov berish va olingan ma'lumotlarni umumlashtirish bo'yicha talabalar malakasini oshirish.

**Tayanch iboralar:** issiqlik sig'imi, bug'ning sarfi, kalorimetr, burdon naychasi, ampermetr, voltmetr, termojuftlar.

**Kerakli jihozlar:** O'ta qizigan suv bug'ining massaviy issiqlik sig'imi aniqlash uhen qurilma chizmasi, ishslash prinsipini o'rganish uchun taqdimot shaklida videoroliklar.

**Taqdimotning bir necha slaydlari ilovada keltirilgan.**

**Tajriba ishini bajarish uchun quyidagi adabiyotlar bilan tani-shib chiqish kerak:**

1. Zohidov R.A., Avezov R.R., Vardiyyashvili A.B., Alimova M.M. «Issiqlik texnikasining nazariy asoslari» o'q.qo'l., 1 qism.-T.: TGTU, 2005.

2. Umarjonova F. Sh., Isaxodjaev X. S., Mavjudova Sh. S., Alimova L., O., Axmatova S. R. "Issiqlik texnikasi" fanidan laboratoriya ishlari to'plami. Uslubiy qo'llanma. – Toshkent, ToshdTU. 2014 - 94 b.

**Ishning davomiyligi – 2 soat.**

#### **I. Umumiy ma'lumotlar.**

Ish davomida berilgan  $t_1$ ,  $t_2$  harorat oralig'ida o'rtacha solishtirma massaviy izobar issiqlik sig'imi  $C_p \Big|_{t_1}^{t_2}$  aniqlanadi. Solishtirma massaviy izobar issiqlik sig'imi  $P=const$  bosimda 1 kg moddaning haroratini  $1^{\circ}\text{C}$  ga oshirish uchun kerak bo'ladigan issiqlik miqdoriga tengdir. Berilgan harorat oralig'i issiqlik uchun issiqlik sig'iming o'rtacha qiymati:

$$C_p \Big|_{t_1}^{t_2} = \frac{q_r}{t_2 - t_1} \cdot \frac{kJ}{kg \cdot K} \quad (3.1)$$

Bu ifoda:  $q_r$  - o'zgarmas bosim ( $P=const$ ) 1 kg moddaga berilgan issiqlik miqdori ;

$t_1$  - boshlang'ich harorat,  $^{\circ}\text{C}$ ;

$t_2$  - oxirgi harorat,  $^{\circ}\text{C}$ ;

Solishtirma issiqlik sig'iming o'Ichov birligi quyidagi tenglikni hisobga olish natijasida olingan:  $(t_1 - t_2) ^{\circ}\text{C} = (T_2 - T_1) K$ .


$C_{p_0}$   $\frac{1}{2}$  ning qiymati haroratlar farqiga bog'liq (umumiy holda bosimga ham bog'liq, lekin bu ishda bunday masala ko'rilmaydi).

O' Ichashlar atmosfera bosimida o'ta qizigan suv bug'i uchun o'tkaziladi. O'ta qizigan suv bug'i berilgan bosimda qaynayotgan suvning harorati  $t_{qay}$  ga qaraganda yuori haroratga ega bo'lgan bug'dir. Atmosfera bosimi odatda Toshkent shahri uchun 720-730 mm sim.ust. (0,96-0,973 bar) ga teng; bunga esa qaynash harorati  $t_{qay} = 99^{\circ}\text{C}$  to'g'ri keladi.

O'ta qizigan bug' to'yingan bug'ga issiqlik berishni davom ettirish natijasida hosil bo'ladi. To'yingan bug' esa berilgan bosimda, qaynayotgan suv bilan muvozanat holatida bo'lib, u bilan bir xil haroratga ega bo'ladi. Qaynayotgan suvning tomchilarini o'zida saqlagan bug'ga nam to'yingan bug' deyiladi. Quruq to'yingan bug'ning tarkibida qaynayotgan suv tomchilari bo'lmaydi.

## II. Tajriba qurilmasining bayoni.

O'ta qizigan suv bug'ining o'zgarmas bosimidagi massaviy issiqlik sig'imi  $C_{p_0}$   $\frac{1}{2}$  ni aniqlaydigan tajriba qurilmasining chizmasi tasviri 3.1-rasmda ko'rsatilgan.



3.1-rasm. Tajriba qurilmasining umumiy ko'rinishi.

Tajriba o'tkazish uchun kerak bo'ladigan bug' bug' generatori 1 da suvning o'zgarmas atmosfera bosimi ostida qaynashi tufayli hosil bo'la di. Issiqlik miqdori zanjirida LATR-3 bo'lgan elektr qizdirgichlardan ajralib chiqadi. LATR elektr qizdirgichlarning quvvatini sozlash, qaynashning zarur bo'lgan jadalligini hosil qilish uchun, ya'ni tajriba

qurilmasidan vaqt birligida o'tayotgan bug'ning miqdorini sozlashga imkon beradi. Suvning sathini nazorat qilib turish uchun bug' generatori suv sathini ko'rsatuvchi shisha naycha 4 bilan jihozlangan. Bug' generatorda hosil bo'lgan nam to'yangan bug' qizdirgichga o'tadi. Bu yerda  $P=const$  bosimda elektr qizdirgich 2 dan ajralib chiqadigan issiqlik miqdori hisobiga quruq to'yangan bug'ga aylanadi (ya'ni quritiladi). Quruq to'yangan suv bug'ining harorati va elektr qizdirgichning quvvati LATR-3 orqali boshqariladi. So'ngra t<sub>1</sub> haroratga ega bo'l-gan quruq to'yangan bug' kalorimetrit 6 ga o'tadi. Bu yerda u o'zgarmas bosimda elektr qizdirgichdan ajralgan issiqlik miqdori hisobiga ma'lum bir t<sub>2</sub> haroratigacha qizitiladi va o'ta qizigan bug'ga aylanadi. t<sub>2</sub> haroratni LATR yordamida kalorimetrit qizitgichining quvvatini boshqarish natijasida hosil qilish mumkin. Zanjirdagi tok kuchi va kuchlanish ampermetr hamda voltmetr orqali o'lchanadi.

Kalorimetrga kirishdagi quruq bug' harorati t<sub>1</sub> va undan chiqishdagi o'ta qizigan bug'ning harorati t<sub>2</sub> larni o'lhash uchun tutashtiruvchi naychalardan termojuft 7 ning issiqliklari o'rnatilgan bo'lib, ularning sovuq uchlari eriyotgan muzli ( $0^{\circ}\text{C}$ ) Dyuar idish 8 ga joylashtirilgan. Termojuft qo'shgich 9 orqali gradusda darajalangan millivoltmetrga ulangan.

O'ta qizdirilgan suv bug'i kalorimetrdan chiqib kondensatorga o'tadi. Bug' issiqligini sovituvchi suvgaga beradi va kondensatga aylanadi, hosil bo'lgan kondensat esa o'lchagich idishi 12 ga yig'iladi. Yig'ilgan kondensatning massasi tajriba vaqtida kalorimetrit orqali o'tgan bug'ning massasiga tengdir.

Bug' generatori, bug' o'ta qizdirgichi, kalorimetrit va tutashuvchi naychalar izolyatsion materiallar bilan qoplangan. Kalorimetrit 8 qizdirgich 2 dan bug'ni o'ta qizdirish uchun berilayotgan issiqliknini tashqi muhitga sochilib ketmasligi uchun ushbu kalorimetrit qo'shimcha kompensatsion elektr qizdirgich 2 bilan ta'minlangan. 3.1-rasmda ko'rsatilayotgandek, u ikkala issiqliknini izolyatsiya qiluvchi qatlamlar 14 ning orasida joylashgan va LATR orqali elektr tarmog'iga ulangan. Birinchi izolyatsiya qatlamida yuzasida uchta differensial termojuftlar 7 o'rnatilgan (kalorimetrnning past, o'rta va yuqori qismida) va ularga ulagich 9 orqali potensiometr 10 ga chiqarilgan

Umuman kompensatsion elektr qizdirgichni o'rnatishdan maqsad kalorimetrit ichidagi elektr qizdirgich ajratib chiqarayotgan issiqliknini tashqi muhitga chiqib ketishga to'sqinlik qiluvchi issiqlik maydon

yaratishdir. Ma'lumki, bunday to'siqda issiqlik oqimlarining harorati bir-biriga teng bo'ladi. Buni LATR yordamida kompensatsion elektr qizdirgichning quvvatini boshqarish (moslash) natijasida ro'yobga chiqarish mumkin. Boshqacha aytganda, kalorimetr orqasiga o'tayotgan bug'ni o'ta qizdirish jarayoni davom ettirilgan paytda diffrensial termojuftlardagi issiqlik elektr yurituvchi kuchning (termoEYUK) nolga teng bo'lishiga erishish kerak (bu paytda potensiometr nolni ko'rasatadi), ya'ni izolyatsiyaning ichki va tashqi harorati farqi mavjud emas (issiqlik oqimi yo'q) va kalorimetrnning qizdirgichida ajralib chiqayotgan issiqlik butunlay bug'ga berilayotganidan dalolat beradi.

### III. Tajriba o'tkazish usuli.

Tajriba vaqtি  $\tau$  (sek) davomida kalorimetrnning elektr qizdirgichi ma'lum miqdorda issiqliknii ajratib chiqaradi:

$$Q = W \cdot \tau, \text{ kJ} \quad (3.2)$$

Elektroqizdirgichning quvvati

$$W = I \cdot \Delta U \cdot 10^{-3}, \text{ kWt} \quad (3.3)$$

Bu yerda  $I$  – elektr qizdirgichning zanjirdagi tok kuchi, (ampermetr yordamida o'lchanadi);  $\Delta U$  - kuchlanish,  $V$  (voltmetr yordamida o'lchanadi).

Agar tajriba davomida bug' qizdirgich orqali  $m$  kg bug' o'tgan (idishda  $m$  kg kondensator yig'ilgan) bo'lsa, unda  $1$  kg bug'ga  $P=\text{const}$  bosimda berilgan issiqlik

$$q_r = \frac{Q}{m}, \quad \frac{\text{kJ}}{\text{kg}} \quad (3.4)$$

olingan  $q_r$  ning qiymatini (1.1) ifodaga qo'yamiz.

### IV. Tajriba o'tkazish tartibi.

1. Bug' generatorining elektr qizdirgichini elektr tarmog'iga ulaymiz. Suv qaynashi bilan bug' qizdirgich, kalorimetr va kompensatsion elektr qizdirgichlariga LATR yordamida 110 V kuchlanish beramiz.

2. LATR yordamida  $t_1$  haroratni  $105\text{-}110$   $^{\circ}\text{C}$  ga,  $t_2$  haroratni  $145\text{-}150$   $^{\circ}\text{C}$  gacha ko'taramiz.

3. Potensiometrga har bir differensial termojuftni qayta ulab, ularning termo EYUKni o'lchaymiz. Kompensatsion qizdirgich LATR yordamida potensiometrnning ko'rsatishini nolga yaqinlashtiramiz. Hatolik  $0,5$  mV bo'lishi mumkin.

4. I , Δ U, t<sub>1</sub> va t<sub>2</sub> larning qiymatlari vaqt o'tishi bilan o'zgarmayotganligiga, ya'ni qurilma barqaror holatda ishlayotganiga ishonch hosil qilamiz.

5. Sekundomerni ishgaga tushirib, 12-15 daqiqa davomida kondensatning o'lchagich idishga yig'ilishi kuzatiladi. Har 3 minut davomida asboblardan I, ΔU, t<sub>1</sub> va t<sub>2</sub> larning qiymatini olib jadvalga yozilib boriladi.

6. 12 yoki 15 daqiqa o'tishi bilan yig'ilgan kondensatning massasi M kg da aniqlanadi.

## V. Tajriba natijalarini yozish uchun jadvali.

**3.1-jadval**

T/r	Vaqt, min τ	Bug'ning harorati		Tok kuchi I, A	Kuchlanish Δ U, V
		t <sub>1</sub> , °C	t <sub>2</sub> , °C		
1	0				
2	3				
3	6				
4	9				
5	12				

## VI. Hisoblash tartibi.

Quyidagilar hisoblanadi:

1. (3.3) – ifoda yordamida kalorimetrik elektr qizdirgichning quvvati W hisoblanadi.

2. (3.1) – ifoda yordamida o'ta qizigan suv bug'ining solishtirma issiqlik sig'imi hisoblanadi.

3. O'zgarmas atmosfera bosimidagi o'ta qizdirilgan bug'ning solishtirma massaviy issiqlik sig'imating haqiqiy qiymati miqdorda aniqlikka ega bo'lgan ifoda yordamida topiladi.

$$C_p \Big|_{\text{t}_1}^{\text{t}_2} = 1,8401 + 0,000586 \cdot \text{t}_0 \cdot r$$

4. Tajriba yordamida aniqlangan va haqiqiy issiqlik sig'imi o'rtaсидаги nisbiy hatolik topiladi:

$$\delta C_p \Big|_{\text{t}_1}^{\text{t}_2} = \frac{C_p \Big|_{\text{t}_1}^{\text{t}_2} - C_p \Big|_{\text{t}_1}^{\text{t}_2}}{C_p \Big|_{\text{t}_1}^{\text{t}_2}} \cdot 100\%$$

Ish yuzasidan yozilgan hisobotda ishning qisqa bayoni, tajriba chizmasi, tajriba natijalari yozilgan jadval, hisoblar bo'lishi kerak.

## VII. Ish bo'yicha hisobot.


Hisobot quyidagilardan iborat bo'lishi kerak:

1. Ishning qisqacha tavsifi.
2. Qurilmaning prinsipial sxemasi.
3. O'ta qizigan suv bug'ining massaviy issiqlik sig'imi aniqlash tajriba qurilmasini prinsipial sxemasini chizish.

## VIII. Nazorat savollari.

1. Kalorimetrik deb nimaga aytildi?
2. Suv bug'ining turlari?
3. O'ta qizigan suv bug'ining asosiy parametrlari qaysilar?
4. Massaviy issiqlik sig'im qaysi kalorimetrik parametrlarga bog'liq?
5. Bug' hosil bo'lish issiqligi qayerlarda qo'llaniladi?

Ilova-1



Laboratoriya qurilmasi sxemasi.

## **4-LABORATORIYA ISHI. NAM HAVONING TAVSIFINI ANIQLASH.**

**(EHM dasturi orqali hisoblanadi)**

**Ishdan maqsad:** Nam havoning parametrlarini aniqlash haqida talabalar bilim va ko'nikmalarini oshirish.

1. Tajriba o'tkazish bo'yicha malaka orttirish va h-d diagrammadan misollar yechishda foydalanish.

2. Tajriba natijalarining tahlili.

3. Xulosalar.

**Tayanch iboralar:** nam va quruq harorat o'lchash asboblari, kalorimetrik, ventilator, termojuftlar.

**Kerakli jihozlar:** Nam havoning tavsifini aniqlash uchun qurilma chizmasi, ishlash prinsipini o'rghanish uchun taqdimot shaklida videoroliklar.

**Taqdimotning bir necha slaydlari ilovada keltirilgan.**

**Tajriba ishini bajarish uchun quyidagi adabiyotlar bilan tanishib chiqish kerak:**

1. Alimova M.M., Mavjudova Sh.S., Isaxodjayev X.S., Raximjonov R.T., Umarjonova F.Sh. «Issiqlik texnikasining nazariy asoslari» fani dan tajriba ishlari to'plami. Uslubiy qo'llanma, 1-qism.-T.: TDTU, 2006.

2. Полищук Г.С., Гурович Б.М., Тактаева Л.Н., Короли М.А. Сборник лабораторных работ по дисциплине: "Теплотехника". Часть I. -Т.: Ташкент, ТашГТУ, 2004.

**Ishning davomiyligi – 4 soat.**

### **I. Umumiy ma'lumotlar.**

Juda ko'p texnologik jarayonlarda ishchi jism sifatida havo qo'llaniladi (materiallarni quritish va namlashda, pnevmotransportda, mexanizmlarning pnevmatik uzatmalarida va hokazo). Jarayonlarning hisoboti uchun shu ishchi jismning xususiyatlari va parametrlarini bilsish zarur. Atmosfera havosida har doim namlik bo'ladi. Atmosfera havosi quruq havo va suv bug'ining aralashmasidan iborat. O'zining fizik xusu-siyatlari bo'yicha nam havo ideal gazdan uncha farq qilmaydi. Buning sababi shundaki, havodagi namlik bug' holatida bo'lib, u uncha katta bo'limgan parsial bosimga ega (bir necha mm sim.ust.). Undan

tashqari, nam havodagi jarayonlar ko'pincha atmosfera bosimiga yaqin bosim-larda kechadi. Shu sabablarga ko'ra nam havoga ideal gaz qonunlarini qo'llash mumkin. Havoda suv bug'i o'ta qizigan yoki to'yangan bo'lishi mumkin. Bu sharoitda havoning berilgan haroratida bug'ning holati uning parsial bosimi bilan belgilanadi. Havoning namligi havodagi suv bug'inining miqdori bilan ifodalanadi.

Nam havo tarkibidagi suv bug'inining massasini shu nam havo hajmiga nisbati uning mutlaq namligi deb ataladi.

Havoning nam saqlami ( $d$ ) deb, nam havodagi 1 kg quruq havoga nisbatan olingan suv bug'inining massasiga aytildi. Nisbiy namlik ( $\varphi$ ) deb, to'yangan havoning haqiqiy mutlaq namligini ( $\rho_b$ ) mazkur t dagi to'yangan havoning mutlaq namligiga ( $\rho''$ ) nisbati aytildi.

$$\varphi = \frac{\rho_b}{\rho''} = \frac{d_1}{D_s} \quad (4.1)$$

bu yerda:  $P_b$  – suv bug'inining parsial bosimi;

$P_h$  – nam havodagi to'yangan bug'ning parsial bosimi.

Havoning nisbiy namligi  $\varphi$  ni aniqlash uchun har xil usullar va o'Ichash asboblari qo'llaniladi. Shu usullardan biri psixrometrik usul bo'lib, u bir xil ikkita simobli termometrlarning ko'rsatishlari farqiga asoslangan, bu yerda bitta termometrning termoballoni suv bilan ho'llanib turiladi. Shu asosda qurilgan asboblar – psixrometrler det ataladi. Havoning nisbiy namligi  $\varphi=0$  dan (quruq havo)  $\varphi = 1$  (havo namlik bilan to'yangan) oraliq'ida o'zgarishi mumkun.

O'zgarmas bosimda to'yangan nam havoninng ( $0 < \varphi < 1$ ) haroratini kamaytirib, uni to'yangan holatiga ( $\varphi=1$ ) keltirish mumkin. Buning uchun to'yangan nam havoning harorat tarkibidagi bug'ning parsial bosimiga to'g'ri keluvchi quruq to'yangan bug'ning haroratiga tenglashishi kerak. Bu haroratni shudring nuqtasi harorati  $t_{sh}$  deb ataladi. Nam havoni sovitish davom ettirilsa, undan namlik shudring yoki tumai ko'rinishida ajrala boshlaydi.

Nam havoning asosiy parametrlarini quyidagi tenglamalardan aniqlanadi:

Nam havoning gaz doimiysi

$$R = \frac{8314}{28,96 - 10,94 \frac{P_b}{P}} \cdot \left[ \frac{J}{kg \cdot K} \right]. \quad (4.2)$$

bu erda:  $P_b = \varphi \cdot P$ , mm sim.ust.;  $P_b$  – nam havo tarkibidagi bug'ning parsial bosimi;  $P$  – aralashma bosimi (nam havoning bosimi), mm sim.ust.

Nam havoning zichligi:

$$\rho = \frac{28,96 \cdot \rho - 10,94 \cdot P_b}{8314 \cdot T}, \left[ \frac{\text{kg}}{\text{m}^3} \right]. \quad (4.3)$$

bu erda:  $T$  – nam havoning mutloq harorati, K.

Tenglamadan kelib chiqadiki, havoning namligi qancha ko'p bo'lsa, ya'ni havodagi suv bug'ining parsial bosimi katta bo'lsa, havo zichligi shuncha kam bo'ladi.

## II. Nam havoning entalpiyasi.

$$h = t + d(2501 + 1,93 \cdot t), \quad \left[ \frac{\text{J}}{\text{kg}} \right] \quad (4.4)$$

yoki

$$h = 0,24 t + d(597 + 0,46 \cdot t), \quad \left[ \frac{\text{kcall}}{\text{kg}} \right] \quad (4.5)$$

Tenglamalardan nam havoning entalpiyasi bosimga bog'liq emasligi kelib chiqadi va bu tabiiy, chunki aralashma komponentlarini biz ideal gazlar deb hisoblaymiz.

Kattalik  $h$  1 kg quruq havo uchun yoki  $1+d$  kg nam havo uchun keltirilgan. Nam havoning parametrlarini 1918 yilda prof. Ramzin tomonidan taklif qilingan  $h-d$  diagramma yordamida grafik yo'li bilan aniqlanadi.

Bu diagrammada ordinata o'qi bo'yicha nam havoning entalpiyasi  $h$  (kJ/kg), abssissa o'qi bo'yicha esa – nam saqlami  $d$  (g/kg) keltirilgan.  $h-d$  diagrammasidagi har xil chiziqlar qulayroq joylashishi uchun ordinata o'qi vertikal, abssissa o'qi unga nisbatan  $135^\circ$  ga teng bo'lgan burchak ostida o'tkazilgan.

Diagrammada ko'rsatilgan chiziqlar: o'zgarmas entalpiya ( $h=const$ ) chiziqlari (ordinata o'qi bilan  $45^\circ$  burchak hosil qilingan to'g'ri chiziqlar), o'zgarmas nam saqlami ( $d=const$ ) chiziqlari, nam havoning o'zgarmas harorati ( $t=const$ ) chiziqlari; havoning nisbiy namligi ( $\varphi=const$ ) chiziqlari.

Odatda  $h-d$  diagramma o'zgarmas barometrik bosim uchun qurilib, uning yordamida ma'lum  $t$  va  $\varphi$  bo'yicha  $h$  hamda  $d$  ni aniqlash mumkin.  $d$  bo'yicha suv bug'ining parsial bosimi  $P_b$ , ni diafragmadan shudging nuqtasini aniqlash mumkin, buning uchun havo holatini tavsif-

laydigan nuqtadan  $\varphi = 100\%$  chizig'i bilan kesishadigan vertikal chiziq o'tkazish lozim va shu nuqtadan o'tgan izoterma shudring haroratini ko'rsatadi.

Nam havoning isitish (sovithish) jarayonlarini o'zgarmas nam saqlamida ( $d=const$ ) sodir bo'ladi.  $h-d$  diagrammada bu jarayon vertikal to'g'ri chiziq bilan tasvirlangan. Nam havoning sovithish jarayoni faqat havoning butunlay to'yinshigacha, ya'ni  $\varphi = 100\%$  gacha bo'ladi. Havoni yanada sovithish undan namlikning shudring (kondensat) sifatida tushishiga olib keladi.


Kondensasiya jarayonini  $\varphi = 100\%$  chizig'i bo'yicha boradi, havoning nam saqlami esa  $d_1$  dan  $d_2$  gacha kamayadi deb hisoblash mumkin. Kondensasiya natijasida hosil bo'lgan suv miqdori havoning nam saqlami farqiga  $d_1 - d_2$  (g/kg) ga teng bo'ladi.

Texnikada nam havoning  $h-d$  diagrammasi keng qo'llaniladi. Uning yordamida biron bir jismni quritish jarayonini hisoblash osondir. Quritish uchun foydalilanilgan havo materialdag'i namni bug'latadi va o'zi namlanadi. Quritish jarayoni uchun faqat to'yinmagan havo zarur va uning boshlang'ich nam saqlami qancha kam bo'lsa shuncha yaxshi.

Havoning  $P=const$  dagi nam bilan to'yinsh ideal jarayoni deb shunday jarayonga aytildiki, unda havoning issiqligi faqat quritilayotgan materiallardan namni bug'latishga sarf bo'lib, atrof muhitga sarf bo'ladiqan issiqlik yo'qotish va suyuqlikni qizdirishga sarf qilingan issiqlik hisobiga olinmaydi. Bug'lanishga sarflangan issiqlik esa bug' bilan yana havoga qaytadi, ya'ni jarayonda issiqlikning umumiy balansi nolga teng bo'ladi

Namlikni bug'latish jarayonida havoning namligi ortib boradi, lekin quruq havoning miqdori o'zgarmaydi. Unda nam havo tarkibidagi 1 kg quruq havoga nisbatan olinadigan nam havoning entalpiyasi o'zgar maydi. Shuning uchun havoning namlanish jarayoni o'zgarmas entalpiyada sodir bo'ladi deyish mumkin va bu jarayon  $h-d$  diagrammada ordinata o'qiga  $45^\circ$  burchakda bo'lgan to'g'ri chiziq sifatida tasvirlanadi.

### III. Tajriba qurilmasining tavsifi.



4.1- rasm. Tajriba qurilmasining umumiy ko‘rinishi.

Qurilmada havoning qizish va namlanish jarayonlarini tadqiq qilish mumkin. Qurilma aerodinamik quvur 1, ventilyator 2 va elektr dvigatel 3 dan iborat. Aerodinamik quvur ichida calorifer (elektr isitgich) 4, namlash kamerasi 7, psixrometr 5 va termometr 6 joylashgan. Elektr isitgich 4 avtotransformator 10 orqali 220 voltli o‘zgaruvchan tok manbaiga ulangan. Zanjirdagi tok kuchi ampermestr 9, kuchlanish - voltmetr 8 yordamida o‘lchanadi.

Namlash kamerasi 7 qalin simdan yasalgan ramkadan iborat bo‘lib, namlik almashuv yuzasini oshirish uchun maxsus mato bilan o‘ralgan.

Namlash kamerasini aerodinamik quvurdan chiqarib olish mumkin. Undan quvurdagi teshikni maxsus qopqoq bilan berkitilib, boltlar bilan mahkamlanadi.

Psixrometr 5 havoning aerodinamik quvurga kirishdagi harorat  $t_1$  ni va nisbiy namlik  $\varphi_1$ ni aniqlash uchun kerak (bu erda qaysi bir jarayon - havoning qizitilishi yoki namlanishiga qarab calorifer 4 yoki namlash kamerasi 7 oldida o‘lchovlar o‘tkaziladi).

Termometr 6 havoning harorati  $t_2$  ni o‘lchash uchun, ya’ni calorifer 4 dan keyin (havoning qizdirish jarayonida) yoki namlash kamerasi 7 dan keyin (namlanish jarayonida) ishlataladi.

#### **IV. Havoni qizdirish jarayonining tajriba o'tkazish uslubi va tartibi.**

1. Aerodinamik quvur 1 dan namlanish kamera 7 ni olib, teshikni qopqoq bilan yopish kerak.

2. Ventilyator 2 ni elektr motori 3 ni ishlatib, xona havosini aerodinamik quvur 1ga so'rish jarayonni boshlaydi. Havo quvur bo'yicha oqadi, undan keyin atrof-muhitga chiqib ketadi. Berilgan (o'zgarmas) tezlikda harakatlanayotgan havo ketma-ket psixrometr 5, calorifer 4 va termometr 6 lardan o'tadi.

3. Kalorifer 4 (elektr isitgich ) o'zgaruvchan elektr manbaiga ulanib, caloriferdan o'tayotgan tok kuchi (ampermetr 9 bo'yicha) hamda kuchlanish (voltemetr 8 bo'yicha) rostlanadi. Butun tajriba jarayonida ampermetr 8 va voltmetr 9 ko'rsatishlari o'zgarmasligi kerak.

4. 15 minut o'tgandan keyin barqaror holat bo'ladi shu daqiqadan boshlab, psixrometr 5 va termometr 6 larning ko'rsatmalari o'zgarmaydi. Psixrometr 5, termometr 6 va voltmetr 8 larning ko'rsatkichlari birinchi bor yozib olinadi. 10 minutdan keyin hamma asboblarining ko'rsatmalarini o'lchab, 1-jadvalga yoziladi.

5. Elektr isitgich o'chiriladi va qurilmalardan 5-10 minut mobaynida havo haydaladi.

6. Ikkinci o'lchov natijalaridan foydalanan, haroratlar psixrometrik farqini  $\Delta t = t_k - t_{x_0} [{}^{\circ}\text{C}]$  topish va psixrometrik jadval bo'yicha havoning calorifer oldidagi nisbiy namligi  $\varphi$  ni aniqlash kerak

7.  $\varphi_1$  va  $t_1 = t_k [{}^{\circ}\text{C}]$  bo'lgan holda, h-d diagrammada 1-nuqta belgilanadi. Bu nuqta nam havoning caloriferga kirishdan oldingi holatini ko'rsatadi va havoning parametrlari  $h_1, d_1, \varphi_1, P_{b1}$  ni aniqlaydi. h-d diagrammada 1-nuqtadan  $t_2 = \text{const}$  chizig'igacha vertikal to'g'ri chiziq 1-2 o'tkazamiz kesishuv nuqtasi 2-nuqta bo'ladi. 2-nuqta caloriferdan chiqayotgan nam havoning holatini ko'rsatadi va havoning parametrlari  $h_2, d_2, d_{2,}, P_{b2}$  ni aniqlaydi. Ko'rinish turibdiki,  $d_1 = d_2 = \text{const}$ .

8. h-d diagrammada 1-nuqtadan bu nuqta nam havoning havoning caloriferga kirishdan oldingi holatini ko'rsatadi va havoning  $h, d, p$  parametrlarini aniqlaydi.

#### **V. Havoning namlanish jarayonini tajriba o'tkazish uslubi va tartibi.**

1. Namlash kamerasi 7 ni suv bilan yaxshilab ho'llab, keyin aerodinamik quvur 1 ga o'rnatiladi.

2. Ventilyator 2 ning elektr motori 3 ishga tushiriladi.
3. 15 minutdan keyin barqaror holat hosil bo'ladi. Shu daqiqadan boshlab, psixrometr 5 va termometr 6 ko'rsatmalari o'zgarmaydi. Psixrometr va termometr ko'rsatmalarini birinchi bor yozib qo'yish kerak. 10 minutdan keyin yana bir bor hamma asboblarning ko'rsatmalari 2-jadvalga yoziladi.

4. Elektr motori 3 ni elektr manbaidan o'chirib, aerodinamik quvur-dan namlash kamerasi 7 ni olish kerak.

5. Ikkinchi o'lchov natijalaridan foydalanib, haroratlar psixrometrik farqini  $\Delta t = t_k - t_n$  [ $^{\circ}\text{C}$ ] topish va psixrometrik jadval bo'yicha namlash kamerasi 7 oldidagi havoning nisbiy namligi  $\varphi_1$  [%] ni aniqlash kerak.

6.  $\varphi_1$  va  $t=t_q$  [ $^{\circ}\text{C}$ ] bo'yicha h-d diagrammada 1-nuqtani belgilash kerak, bu nuqta nam havoning namlash kamerasi 7 oldidagi holatini ko'rsatadi va havo parametrlari  $h$ ,  $d$ ,  $R_{\text{bug}}$  aniqlanadi.

7. h-d diagrammada 1-nuqtadan ordinata o'qiga nisbatan  $45^0$  bur-chakda izoterma  $t_2=const$  chizig'iga to'g'ri chiziq 1-2 o'tkazamiz, kesishuv nuqtasi - 2 namlangan havo holatini ko'rsatadi va havoning parametri  $h_2$ ,  $d_2$ ,  $P_2$ ,  $P_{b2}$  larni aniqlaydi. Ko'rinish turibdiki  $h_2=h_1=const$ .

## VI. Ish bajarish tartibi.

1. Ho'l termometr ( $t_x$ ) va haroratlar psixrometrik farqi  $\Delta t=t_k-t_n$  bo'yicha jadvaldan havoning nisbiy namligi  $\varphi_1$  ni kaloriferga kirishda (havoni qizitish jarayonida) hamda namlash kamerasiga kirishda (havoni namlash jarayonida) aniqlash kerak.

2. h-d diagramma bo'yicha nam havoning kaloriferdan oldingi va keyingi (havoni qizitish jarayoni) hamda namlash kamerasidan oldingi va keyingi (havoni namlash jarayoni) parametrlarni aniqlash kerak.

3. Ifodalar (2) va (3) bo'yicha nam havoning gaz doimiysi  $R$  va zichligi  $\rho$  ni 1-nuqta (qizdirish jarayoni) hamda 2-nuqta (namlash jarayoni) hisoblab chiqish kerak.

4. Qizdirish va namlash jarayonlarida nam havo holatining o'zgarishini tahlil qilib chiqing va xulosalar chiqaring.

## VII. Tajriba natijalarini yozish uchun jadvali.

4.1-jadval

Hisob	Psixrometr(5)		Termometr (6)		Kalorifer (4)	
	$t_k, {}^{\circ}\text{C}$	$t_{x0'l}, {}^{\circ}\text{C}$	$t_2, {}^{\circ}\text{C}$	I, A	U, V	
Birinchi						
Ikkinchchi						

## VIII. Ish bo'yicha hisobot.

Hisobot quyidagilardan iborat bo'lishi kerak:

1. Ishning qisqacha tavsifi.
2. Qurilmaning prinsipial sxemasi.
3. Nam havoning parametrlarini aniqlash tajriba qurilmasi ish tavsifi chiziladi.


## IX. Nazorat savollari.

1. Nam havo deb nimaga aytildi?
2. Nam havo qanday asboblarda o'chanadi?
3. Nam havo o'chaydigan asboblarning qanday turlarini bilasiz?
4. Namlik saqlami nima?
5. Shudring nuqtasi deb nimaga aytildi?

Ilova-1

Ilova-1							
Izakazonlarda havoni ishlash-namoyish istodov berish uchun parameterlari hisoblash dasturi							
Olingan natijalar							
$P_d$	$t$	$d$	$J$	$P_n$	$t_m$	$t_p$	
<b>Boshlang'ich qlymmalar</b>							
$C_{1n} = 20$	1. Xavosmet hamʼlik chalʼtuvchi: $d = \frac{622 \cdot P_d}{P_n - P_p}$						
$P_n = 1,006$	2. Suv butʼumining metʼalidagi: $t = c_v \cdot t + \frac{(R + t \cdot c_p) \cdot d}{1000}$						
$P_d = 2501$	3. XJL termometriyasi: $t_n = \frac{-6.14 + 0.651 \cdot J}{1 + 0.0977 - 3.12 \cdot 10^{-4} \cdot J}$						
$t = 1,86$	4. Shudring nuqtasi: $t_q = \frac{-200.0 + 117.0 \cdot d^{0.104}}{4.433 + d^{0.004}}$						
$c_v = 654,8$							
$R = 101325$							

Nam havoning tavsifini aniqlash bo'yicha EHMda yaratilgan dasturi.



Havoning absolut namlik diagrammasi.

Ilova-2



Zamonaviy o'lichash asboblari.

## **5-LABORATORIYA ISHI. CO-7A KOMPRESSORI ELEMENTLARI VA ISHLASH USLUBI.**

**Ishdan maqsad:** Tajriba ishidan maqsad kompressorning konstruktiv tuzilishini chuqur o‘rganib chiqishlari va kompressor qurilmasining ishlash prinsipini, hamda eskizini chizishini o‘rganish.

**Tayanch iboralar:** kompressor, porshen, tsilindr, ishchi bosim, siqilgan havo, bosim ortish darajasi.

**Kerakli jihozlar:** kompressorni konstruktiv tuzilishini o‘rganish uchun qurilma chizmasi, ish prinsipini o‘rganish uchun taqdimot shaklida videoroliklar.

**Taqdimotning bir necha slaydlari ilovada keltirilgan.**

**Tajriba ishini bajarish uchun quyidagi adabiyotlar bilan tanishib chiqish kerak:**

1. Alimova M.M., Mavjudova Sh.S., Isaxodjayev X.S., Raximjonov R.T., Umarjonova F.Sh. «Issiqlik texnikasining nazariy asoslari» fani dan tajriba ishlari to‘plami. Uslubiy qo‘llanma., 1-qism.-T.: TDTU, 2006.

2. Под ред. Захаровой А.А. Техническая термодинамика и теплотехника. –М.: Академия, 2006.

**Ishning davomiyligi – 4 soat.**

### **I.Umumiy ma’lumotlar**


Ishlab chiqarish quvvati	30 m <sup>3</sup> /soat;
Ishchi bosimi	6 kgs/sm <sup>2</sup> (6* 10 <sup>5</sup> Pa);
Silindr diametri	78 mm;
Porshen diametri	75 mm;
Silindrlar soni	2 ;
Porshenning xarakat masofasi	85 mm;
Tirsakli valning aylanish tezligi	1000 ayl/min;
Tirsakli valning aylanish yo‘nalishi (mexanik tomonidan)	soat strelkasi yo‘nalishiga teskari;
Yog‘ sarfi	40 g/soat dan ko‘p emas;
Bosimni sozlash chegarasi	2÷6 kgs/sm <sup>2</sup> ;
Elektr dvigatelining turi	AOL2-32-2;
Quvvati	4 kVt ;
Valning aylanish soni	2880 ayl/min;
Resivering hajmi	22 litr.

Kompressorlar deb, gazlarning shu jumladan havoni  $3 \text{ atm}$  dan yuqori bo'lgan bosim bilan siqish uchun xizmat qiluvchi mashinalarga aytildi. Kompressorlarda olinadigan siqilgan havo, texnikaning turli sohalarida keng qo'llaniladi. Masalan, siqilgan havoda ishlovchi bolg'a-larda; metallurgiya sanoatida: o'choqlarga havo purkashda, metallarga katta bosim ostida qurilishda: pardozlash ishlarini bajarishda, metall quymalarning sirtini qumli oqim bilan tozalashda va h.k.

Kompressorlar ikki turga bulinadi:

- 1) Porshenli kompressorlar;
- 2) Markazdan qochma kuchga ega bulgan kompressorlar.

Kompressor mashinalarining ishi termodinamik nuqtai nazardan tahlil qilinganda, gazning sikilishidagi haqiqiy jarayon bilan ideal jarayonlarning farqi shundaki, haqiqiy jarayonda zararli hajm va boshqa yo'qotishlar hisobga olinadi, ideal jarayonda esa hisobga olinmaydi. Porshenli kompressorning indikator diagrammasini ko'rib chiqamiz.



**5.1-rasm. 4 taktli kompressor ish jarayonining indikator diagrammasi.**


Haqiqiy indikator diagrammadan olingan, silindrga kirgan gaz hajmi  $V_u$  ning, silindrning ishchi hajmi  $V_h$  ga bo'lgan nisbati, kompressorning hajmiy F.I.K. deyiladi:

$$\eta_r = \frac{V_u}{V_h} \quad (5.1)$$

Kompressordagi har xil tirkishlar orqali gaz chiqib ketganligi uchun, silindrga rostmana surib olingan gazning hajmi haqiqiy indikator diagrammadan olingan gaz xajmi  $V_u$  dan kichik bo'ladi.  $V$  ning ishchi xajmi  $V_h$  ga nisbati uzatish koefitsiyenti deyiladi.

$$\lambda = \frac{V}{V_h} \quad (5.2)$$

Hajmiy F.I.K. va uzatish koeffitsiyentlarining qiymatlari  
 $\eta_v = 0,75 - 0,95$ ;  $\lambda = 0,65 - 0,85$



### 5.2 – rasm. CO – 7A kompressorni sxemasi.

1 - havo filtri; 2 - bosim sozlagich; 3- yog‘ - namlik tozalagich;  
 4 - resiver; 5 - ehtiyot klapani; 6 - haydash quvuri.

## II. Kompressor CO-7A va undagi havo yo‘lining chizma tasviri.

Porshen pastga harakatlanganda, silindrda bosim atmosfera bosimiga nisbatan kamayib ketadi, natijada atmosfera bosimining kuchi tufayli surish klapini ochilib, silindr havo filtridan (1) o‘tgan havo bilan to‘ladi. Porshen qayta yuqoriga qarab harakatlanganda, silindrda havo atmosfera bosimiga nisbatan katta bosim bilan siqiladi, natijada surish klapani yopilib, tashqi havoning silindr bilan aloqasi uzeladi (5.2-rasm). Porshenning yuqoriga qarab xarakatlanishi davom etadi va silindrda havo haydash klapanini va haydash quvuridagi siqilgan havo qarshiligini yenguniga qadar siqiladi. Shu daqiqada haydash klapani ochilib, siqilgan havo porshen yordamida silindrda silindr qopqogidagi haydash kamerasiga haydar chiqariladi, va haydash quvuri (6) orkali resiver (4) ga, so‘ngra undan yog‘ namlik tozalagichga (3) kelib tushadi. Havo yog‘ namlik tozalagichdan ikkita taqsimlanuvchi kran orqali iste’molchiga yuboriladi. Yog‘ namlik tozalagichda bosimni kuzatish uchun manometr va siqilgan bosimni sozlash uchun bosim (2) sozlagich o‘rnataligan. Kompressordagi bosim meyordan oshib ketmasligi uchun resiverga ehtiyot klapani (5) o‘rnataligan.

CO-7A - oddiy harakatlanuvchi, havo bilan sovutiladigan, ikki silindrli bir pog'onali porshenli kompressor hisoblanadi. Kompressor karteri va silindrlar bloki cho'yandan quyilgan. Silindrlarni sovutish uchun silindrlar blokiga halkali qirralar o'rnatilgan. Kompressor silindrlarning kopkogi allyuminiydan quyilgan bo'lib, sovutish uchun uning tashqi tomoni qirralar bilan jihozlangan. Qopqoqning ichki tomonidagi bo'shliq to'siq bilan ikki qismga, ya'ni surish va haydash bo'shliqlariga ajratilgan. Har bir silindr prujina lentasidan tayerlangan surish va haydash klapanlari bilan ta'minlangan.

Shatunlar - shtamplash usuli bilan po'latdan tayyorlangan. Quyi kallachasiga babbitli quyma o'rnatilgan bo'lib, yuqori kallachasiga esa, bronza lentasidan tayerlangan vtulka siqb qo'yilgan. Porshenlar allyuminiy qotishmasidan quyilgan bo'lib, ularning har birida ikkita zichlash va ikkita yog' sidirish porshen halkalari bor. Tirsakli val po'latdan qolipda tayerlangan bo'lib, ikkita radial zoldirlri podshipniklarga taya-nadi.

Havo filtri - silindr shaklida bo'lib, silindr kallachasi tagidagi surish bo'shilig'iga kirayotgan havoni tozalash uchun,xizmat qiladi.

Yog'-namlik tozalagich - payvandlangan balon shaklida bo'lib, ichida Rashig xalkalari bilan to'ldirilgan stakan bor. Yog'-namlik tozalagichning vazifasi istemolchiga yuboriladigan siqilgan havoni yog' va suv zarrachalaridan tozalashdir. Ajratib olingan yog' va suv balon tubiga oqib tushadi va to'kish teshigidan vaqt-vaqtida to'kib tashlanadi.

Bosim sozlagich - yordamida bosimni 2 dan 6  $\text{kgs/sm}^2$  gacha sozlash mumkin. Ortiqcha siqilgan havoni chiqarib yuborish yo'li bilan kerakli bosim saqlanadi.

Vint (6) bilan kerakli bosim sozlanayotganda, prujina (4) ga kerakli bosimga mos keluvchi zo'riqish beriladi va undan so'ng sozlash vinti kontgayka bilan (5) yopib qo'yiladi.

Extiyot klapani - 7  $\text{kgs/sm}^2$  ga moslab sozlangan bo'lib, bosimni meyordan oshib ketmasligi uchun xizmat kiladi.

Resiver – tuzilishi jihatidan bir-biriga tutashtirilgan ikkita po'lat quvuridan iborat bo'lib, quyidagilarni amalga oshirish uchun xizmat qiladi: a) kompressor porshenining ilgarilama qaytar harakati tufayli paydo bo'ladigan havo tebranishini bir maromga keltirish uchun; b) siqilgan havoni tekis iste'mol qilinganda havo bosimi tebranishini yo'qotish uchun;v) havo bilan birga resiverga kirib kolgan suv va yog' zarrachalaridan tozalash uchun.

Moy karterga moy ulagich yopadigan teshik orqali quyiladi. Moy sathi moy o'lchagich yordamida aniqlanadi. Moy sathi moy o'lchagichdagi yuqori va pastki belgilar oralig'ida bo'lishi kerak. Moylash uchun kompressor moyi ishlataladi. Elektr dvigatel podshipniklariga vaqtı-vaqtı bilan tavot va shunga o'xshash quyuk moy tiqiladi. Kompressor to'siq bilan o'rالgan dvigatel yordamida ishga tushiriladi.

### **III. Kompressor qurilmasining siqilgan havo har xil bo'lganda elektr dvigatel sarf qilgan quvvatni tajriba usuli bilan aniqlash.**

Kompressor qurilmasining tuzilishi bilan tanishib chiqilgach, kompressor qurilmasining siqilgan havo yo'lidagi qarshilikni taqsimlash jo'mragidagi ko'ndalang kesim yuzasini asta-sekin kamaytirish yo'li bilan sun'iy ravishda har xil qilib, elektr dvigatel sarf qilgan quvvatini aniqlashga kirishiladi.

Buning uchun:

- Asboblar ko'rsatishini yozish uchun jadval tayyorlanadi.
- Yog' va namlik ajratgichdagi taqsimlagich jo'mraklaridan biri yopib qo'yiladi va ikkinchi taqsimlagich jo'mrak esa butunlay olib qo'yiladi.
- Bosim sozlagichni tajriba davomida o'zgartirmaydigan ma'lum bosimga moslab qo'yib, elektr dvigatel ishga tushiriladi.
- Manometrning ko'rsatishi 1 atm. ni ko'rsatguncha, ikkinchi taqsimlagich jo'mrak asta-sekin yopiladi. Bosim 1 atm. ga yetgach, ampermetr va voltmetrlarning ko'rsatishlari yozib qo'yiladi.
- Manometrning ko'rsatishi 2, 3, 4 atm ko'rsatguniga qadar ikkinchi taqsimlagich jo'mrakni asta-sekin yopish davom ettiriladi va bir vaqtning o'zida 2, 3, 4 atm. larda ampermetr va voltmetrlarning ko'rsatishlari yozib boriladi. Manometrning ko'rsatishini 4 atm.da oxirgi marta yozib olgach, elektr dvigatel to'xtatiladi.

### **IV. Tajriba natijalarini yozish uchun jadvali.**

**5.1-jadval**

Manometr ko'rsatayotgan havo bosimi	Elektr o'lchash asboblarining ko'rsatishlari		Elektr dvigatelinig (3) ifodadan hisoblab topilgan quvvati
	Tok kuchi, A	Kuchlanish V	
1 atm da			
2 atm da			
3 atm da			
4 atm da			

O‘lchashlar amalga oshirilgandan keyin, elektr dvigatel sarf qilgan quvvat quyidagi ifodadan hisoblab topiladi:

$$W = 1,73 \cdot I \cdot U \cdot \cos\varphi, \quad (Vt) \quad (5.3)$$

bu ifodada:  $I$  – tok kuchi, A

$U$  – tok kuchlanishi, V

$$\cos\varphi = 0,89.$$

### V. Kompressor ishlab chiqarish quvvatini hisoblash.

a) bir pog‘onali, ikki silindrli, oddiy harakatlanuvchi kompressoring nazariy ishlab chiqarish quvvati quyidagi ifodadan aniqlanadi:

$$V_m = 2 \cdot \frac{\pi D^2}{4} \cdot 60 \cdot S \cdot n, \quad m^3/\text{soat} \quad (5.4)$$

bu ifodada:  $2$  – kompressor silindrlarining soni;

$S$  – porshen yo‘li, m;

$D$  – porshen diametri, m;

$n$  – kompressor valining aylanish soni, marta/min.

b) Shu kompressoring haqiqiy ishlab chiqarish quvvati quyidagi ifodadan aniqlanadi:

$$V = V_m \cdot \lambda = 2 \cdot \frac{\pi D^2}{4} \cdot 60 \cdot S \cdot n \cdot \lambda, \quad m^3/\text{soat} \quad (5.5)$$

bu ifodada:  $\lambda$  - uzatish koefitsiyenti.







### VI. Ish bo‘yicha hisobot

Hisobot quyidagilardan iborat bo‘lishi kerak:

1. Ishning qisqacha tavsifi.
2. Qurilmaning prinsipial sxemasi.
3. Kompressoring prinsipial sxemasini chizish.

### VII. Nazorat savollari

1. Kompressor deb nimaga aytildi?
2. Kompressorni vazifasi nimada?
3. Qanday turlarga kompressorlar bo‘linadi?
4. Kompressorni asosiy elementlariga nimalar kiradi?
5. Porshenli kompressorni qaysi asosiy elementlardan iborat?
6. Qaysi sohalarda kompressorlar ishlataladi?
7. CO-7A kompressor nima bilansovutiladi?
8. CO-7A compressor necha pog‘onali?
9. Resiverni vazifasi nimada?
10. CO-7A kompressor bosimini sozlash chegarasi?



Zamonaviy kompressorlar.

## **6-LABORATORIYA ISHI. IZOLYATSION MATERIALNING ISSIQLIK O'TKAZUVCHANLIK KOEFFITSIYENTINI ANIQLASH. (EHM dasturi orqali hisoblanadi)**

**Ishdan maqsad:** Issiqlik o'tkazuvchanlik nazariyasi bo'yicha bilimlarni mustaxkamlash va tajriba o'tkazish bo'yicha amaliy bilimlar olish.

Ish natijasida quyidagilar o'rganilishi kerak:

1. Issiqlik o'tkazuvchanlik jarayonining fizik moxiyati;
2. Fure konunining mazmuni va uni oddiy geometrik shakldagi jismrlarga qo'llanilishi bilan tanishish;
3. Issiqlik o'tkazuvchanlik koeffisienti haqida tushuncha va uni aniqlashning silindrik usuli.

**Tayanch iboralar:** issiqlik o'tkazuvchanlik koeffisienti, izolyatsion material, termojuft, kalorifel, harorat gradient, harorat maydoni, ekvivalent diametr.

**Kerakli jihozlar:** izolyatsion materialning issiqlik o'tkazuvchanlik koeffisiyentini aniqlash uchun qurilma chizmasi, ish prinsipini o'rganish uchun taqdimot shaklida videoroliklar.

**Taqdimotning bir necha slaydlari ilovada keltirilgan.**

**Tajriba ishini bajarish uchun quyidagi adabiyotlar bilan tanihib chiqish kerak:**

1. Цветков Ф.Ф., Григорьев Б.А. Тепломассообмен, -МЕИ.: 2001.
2. Umarjonova F. Sh., Isaxodjaev X. S., Mavjudova Sh. S., Alimova L., O., Axmatova S. R. "Issiqlik texnikasi" fanidan laboratoriya ishlari to'plami. Uslubiy qo'llanma. – Toshkent, ToshdTU. 2014 - 94 b.

**Ishning davomiyligi – 4 soat.**

### **I.Umumiy ma'lumotlar**

Issiqlik o'tkazuvchanlik issiqliknin temperaturalari har xil bo'lgan qismlarni yoki bir jismning ayrim qismlari zarrachalarining bir-biriga tegishi orqali uzatilish jarayonidir.

Issiqlik tarqalishining jadalligi son jixatdan izotermik sirdan vaqt birligi ichida o'tadigan issiqlik oqimi zichligi vektori bilan aniqlanadi.

Bu vektor izotermik sirtga normal joylashgan bo'lib, temperatura-ning kamayish tomonga yo'nalgan bo'ladi.

Fure qonuniga asosan,  $d\tau$  vaqt ichida elementar izotermik sirt  $dF$  orqali utayotgan issiqlik oqimi  $dQ$  temperatura gradienti  $\frac{dt}{dn} = \text{gradi}$  ga proporsionaldir.

$$dQ = -\lambda \frac{dt}{dn} dF d\tau \quad (6.1)$$

Yuqoridaq tenglamani integralab silindrsimon katlam uchun quyidagi ifodani xosil qilamiz:

$$Q = \frac{2\pi\lambda(t_1 - t_2)}{\ln \frac{d_2}{d_1}} \cdot Vt \quad (6.2)$$

bu yerda

$l$ - silindirsimon qatlamning uzunligi, m

$d_1, d_2$ - silindirsimon qatlamning ichki va tashqi diametrlari, m

$t_1$  va  $t_2$ - silindirsimon qatlamning ichki va tashqi sirlarining o'rtacha arifmetik temperato'ları,  $^{\circ}\text{C}$


Silindr uzunligi  $l$  diametrlar  $d_1$  va  $d_2$  ma'lum,  $t_1$ ,  $t_2$  va  $Q$  larni o'lchash yo'li bilan aniqlab yuqoridaq tenglamadan materialni issiqlik o'tkazuvchanlik koeffitsiyentini aniqlaymiz:

$$\lambda = \frac{Q \ln \frac{d_2}{d_1}}{2\pi(t_1 - t_2)} \quad \text{Wt/m*k} \quad (6.3)$$

## II.Tajriba qurilmasining tuzilishi.

Tajriba qurilmasining sxemasi 6.1-rasmda ko'rsatilgan qurilma uzunligi  $l=0,96$  m turbadan va ichki diametri  $d_1=32$  mm, tashqi diametri  $d_2=66$  mm bo'lgan izolyasion material (asbosement) silindirsimon qavatidan tuzilgan. Quvur ichiga elektr qizdirgich (6) joylashtirilgan. To'k kuchi laboratoriya transformatori (2) bilan rostlanadi, voltmetr va ampermetrlarning ko'rsatishiga karab issiqlik quvvati aniq-lanadi. O'rganilayotgan materialning temperaturasi 8 ta xromel-kopel termopara yordamida o'lchanadi. Termoparaning issiq uchi o'rganilayotgan materialni ichki va tashki sirtlarida, har bir qatlamda 4 tadan joylashtirilgan. Kavsharlangan sovuq uchi esa eriyotgan muz solingan Dyuar idishi (7) ga solingan. Termoparalar ulagich (3) orqali potensio-

metr PP-1 (5) ga ulangan. E.Y.K ni temperaturaga aytantirish uchun 1-jadvaldan foydalaniladi.



**6.1- rasm. Tajriba qurilmasining umumiy ko‘rinishi.**

Bir o‘lchamli issiqlik oqimi xosil qilish uchun trubaning uzunligi diametrga nisbatan ancha katta qilib olingan. Issiqlikning yo‘qolishini kamaytirish maqsadida trubaning yon tomonlari issiqlik o‘tkazmaydigan material bilan ximoyalangan. Elektr qizdirgich truba uzunligi bo‘yicha tekis taqsimlangan.

### **III.Tajriba o‘tkazish va uning natijalarini xisoblash.**

Ishning nazariy asoslari va tajriba qurilmasining tuzilishi bilan tanishgandan so‘ng kuzatishlar natijasini yozish uchun pratakol formasini tayyorlash va priborlarni ulashni tekshirib chiqish zarur. Dyuar idishida muzning mayjudligiga e’tibor berish kerak. O‘qituvchi sxemani tekshirib chiqqanidan so‘ng tajriba o‘tkazishga kirishish mumkin.

Sistemanli issiqlik holati muvozanatlashguncha har 10-15 minutda xamma o‘lchash asboblarini ko‘rsatishi jadvalga yozib boriladi. O‘lchashga sistema muvozanatlashgandan keyin, ya’ni asboblar ko‘rsatgichi ma’lum vaqt ichida o‘zgarmay qolgandan keyin kirishish mumkin.

Navbatdagagi tajriba boshqa temperatura rejimida o‘tkaziladi. Uning uchun elektr qizdirgichga berayotgan tok kuchi o‘zgartiriladi. Qurilmanni ishga qo‘sish va shu rejimni o‘zgartirish faqat o‘qituvchining ishtiroyida bo‘lishi kerak. Tajriba natijalarini xisoblash uchun sistema muvozanatlashgan holatda o‘lchab olingan ma’lumotlardan foydalaniladi. Odatda oxirgi 3 ta o‘lchash natijasini o‘rtacha qiymati olinadi.

O'rganilayotgan materialni issiqlik o'tkazuvchanlik koeffisientini quyidagi tenglamadan aniqlanadi:

$$\lambda = \frac{Q \ln \frac{d_2}{d_1}}{2\pi(t_1 - t_2)}, \text{ Vt/m*k} \quad (6.4)$$

Issiqlik miqdori Q elektr qizdirgich o'zlashtirayotgan quvvat bilan aniqlanadi.

$$Q = I \cdot \Delta U, \text{ Vt} \quad (6.5)$$

bu erda


*I*- qizdirgichga berilayotgan tok kuchi, A

$\Delta U$ -qizdirgichdagи kuchlanishning pasayishi, V

O'rganilayotgan materialni issiqlik o'tkazuvchanlik koeffitsiyentini o'rtacha temperatura uchun qabul qilinadi.

$$\bar{t} = \frac{t_1 + t_2}{2}, {}^{\circ}\text{C}$$

$\lambda$  ning 3-4 temperatusidagi qiymatlarini olib, issiqlik o'tkazuvchanlik koeffisenti bilan o'rganilayotgan materialni o'rtacha temperaturasi orasidagi bog'lanish grafigini chizish lozim (6.2-rasm).



6.2- rasm

Issiqlik o'tkazuvchanlik koefisienti bilan o'rganilayotgan materialni temperaturasi orasidagi bog'lanish.

Ma'lumki, issiqlik o'tkazuvchanlik koeffisienti bilan temperatura orasida chiziqli bog'lanish mavjud:

$$\lambda = \lambda_0 + bt \text{ Vt/m*k} \quad (6.6)$$

Ko‘rilgan grafikdan o‘rganilayotgan materialdan issiqlik o‘tkazuvchanlik koeffisienti  $\lambda$  ni va koeffisienti « $b$ » ni qiymatini aniqlash zarur.

#### IV. Ish bo‘yicha hisobotda quyidagilar bo‘lishi zarur:

1. Ishning qisqacha mazmuni.
2. Qurilmaning prinsipial sxemasi.
3. O‘lchash asboblari ko‘rsatkichlari va hisoblash natijalari yozilgan jadvallar.
4. Issiqlik o‘tkazuvchanlik koeffisienti bilan temperatura orasidagi bog‘lanish grafigi va  $\lambda_0$  ni va koeffisienti « $b$ » ning topilgan qiymatlari.

#### Xrom-kopel termoparalarining E.Y.K dan graduslari ( $^{\circ}\text{C}$ ) o‘tish jadvali.

$t, ^{\circ}\text{C}$	0	1	2	3	4	5	6	7	8	9
70	4.76	4.83	4.90	4.98	5.05	5.12	5.20	5.27	5.34	5.41
80	5.48	5.56	5.63	5.70	5.78	5.85	5.92	5.99	6.07	6.14
90	6.21	6.29	6.36	6.43	6.51	6.58	6.65	6.73	6.80	6.87
100	6.95	7.03	7.10	7.17	7.25	7.32	7.40	7.47	7.54	7.62
110	7.69	7.77	7.84	7.91	7.99	8.06	8.13	8.21	8.28	8.35
120	8.43	8.50	8.58	8.65	8.73	8.80	8.88	8.95	90.3	9.10

#### V. Tajriba natijalarini yozish uchun jadvali.

##### 6.1-jadval

№	J, A	$\DeltaU,V$	Q, $V_t$	$t_1$	$t_2$	$t_3$	$t_4$	$t_5$	$t_6$	$t_7$	$t_8$	$t_{11}$	$t_{12}$	
				$m$ V										
1														
2														
3														

#### VI. Ish bo‘yicha hisobot.

Hisobot quyidagliardan iborat bo‘lishi kerak:


1. Ishning qisqacha tavsifi.
2. Qurilmaning prinsipial sxemasi.
3. Issiqlik o‘tkazuvchanlik koeffisienti bilan o‘rganilayotgan materialni o‘rtacha temperaturasi orasidagi bog‘lanish grafigini chizish.

#### VII. Nazorat savollari.

1. Issiqlik o‘tkazuvchanlik koeffsienti deb nimaga aytildi ?


2. Fure qonuni nimani o'rganadi?
3. Issiqlik oqimini aniqlash formulasini yozing?
4. Nima uchun trubaning uzunligi diametridan ancha katta qilib olingan?
5. Elektr qizdirgichdan ajralib chiqayotgan issiqlik miqdori qanday aniqlanadi?

**Ilova-1**




**Izolyatsion materialning issiqlik o'tkazuvchanlik koeffisiyentini aniqlash bo'yicha EHMda yaratilgan dasturi.**

**Ilova-2**



**Izolyatsion materiallarni qatlam ko'rinishda joylashishi.**

### Ilova-3



**7-LABORATORIYA ISHI. HAVONING ERKIN  
HARAKATLANGANDA ISSIQLIK BERISH KOEFFISIYENTINI  
ANIQLASH.**  
(EHM dasturi orqali hisoblanadi)

**Ishdan maqsad:** Havoning erkin harakatlanishida issiqlik berish nazariysi bo'yicha bilimni mustahkamlash va tajriba o'tkazishga ko'nikma hoslil qilish.

Ishni bajarish natijasida havo (suyuqlik)ning katta hajmda erkin harakatlanishida konvektiv issiqlik almashinuv o'rganilishi, shuningdek issiqlik berish koeffisientining turli omillarga bog'liqligi aniqlanishi kerak.

**Tayanch iboralar:** issiqlik berish koeffisienti, izolyatsion material, termojuft, kalorifel, harorat gradient, harorat maydoni, ekvivalent diametr.

**Kerakli jihozlar:** Izolyatsion materialning issiqlik berish koeffisiyentini aniqlash uchun qurilma chizmasi, ish prinsipini o'rganish uchun taqdimot shaklida videoroliklar.

**Taqdimotning bir necha slaydlari ilovada keltirilgan.**

**Tajriba ishini bajarish uchun quyidagi adabiyotlar bilan tanishib chiqish kerak:**

1. Taktayeva L.N., Raximjonov R.T., Alimova M.M., Mavjudova Sh.S. Rekuperativ issiqlik almashinuv apparatlarining issiqlik va gidravlik hisobi. Mustaqil ish uchun uslubiy qo'llanma. – Tashkent.: TDTU, 2006.

2. Umarjonova F. Sh., Isaxodjaev X. S., Mavjudova Sh. S., Alimova L., O., Axmatova S. R. "Issiqlik texnikasi" fanidan laboratoriya ishlari to'plami. Uslubiy qo'llanma. – Toshkent, ToshdTU. 2014 - 94 b.

**Ishning davomiyligi – 4 soat.**

**I. Umumiy ma'lumotlar.**

Qizdirilgan va sovuq zarrachalarning zichliklari farqi hisobiga suyuqlikning harakatlanishi erkin harakatlanish deb ataladi.

Agar havoda joylashgan quvur qizigan bo'lsa, havo qiziydi va zichligi kamayadi. Natijada havoning qizigan zarrachalari yuqoriga ko'tariladi, ularning o'rnini sovuq havo zarrachalari egallaydi. Havoning harakatlanish tezligi qancha yuqori bo'lsa va shuningdek devor va atrof-

muhit haroratlari farqi qanchalik katta bo'lsa, uzatilayotgan issiqlik miqdori ham shuncha ko'p bo'ladi.

Demak, issiqlik berish birinchi navbatda devor va atrof-muhit haroratlari farqiga ko'ra aniqlanadi. Bundan tashqari, issiqlik berish jadalligi muhitning fizik xususiyatlariga, qattiq sirtning shakliga, holatiga va boshqa omillarga bog'liq.

Issiqlik berish koeffisienti Nyuton-Rixman qonuni bo'yicha aniqlanadi.

$$\alpha = \frac{Q_K}{F(t_{K,C} - t_M)}, \quad Vt/m^2 \cdot K \quad (7.1)$$

bu erda:  $Q_K$  – qizdirilgan quvurdan konveksiya usulida berilayotgan issiqlik miqdori,  $Vt$ ;

$F$  – quvur sirti yuzasi,  $m^2$ ;

$t_{K,S}$  – qattiq sirt o'rtacha harorati,  $^0C$ ;

$t_M$  – muhitning (suyuqlik yoki havo) harorati,  $^0C$ .

## II. Tajriba qurilmasining tavsifi.


Tajriba qurilmasi nisbatan barqaror haroratlari xonaga joylashgan. Diametri  $d=32 mm$  va uzunligi  $l=1490 mm$  bo'lgan gorizontal mis quvur (1) ichida joylashgan elektr qizdirgich (2) yordamida bir tekis qizdiriladi. Elektr qizdirgichning iste'mol quvvati tajriba avtotransformatori LATR-1 (5) bilan rostlanadi va voltmetr (6) va ampermetr (7) bilan o'chanadi. Issiqlik yo'qotilishini kamaytirish maqsadida quvuring chekka yonlari izolyasiyalangan. Issiqlik berish sirti haroratini o'chanash uchun quvur devoriga sakkizta mis-kontsanta termoparalar (termojuftliklari) (3) biriktirilgan, ularning sovuq uchlari muz solingan Dyuar idishiga (8) solingan. Termoparalarning elektr yurituvchi kuchlari laboratoriya potensiometri PP-63 (4) yordamida o'chanadi. Termoparalarning EYUK qiymatini gradusga aylantirish uchun 7.1-jadvaldan foydalaniladi. Xonadagi havo harorati quvurlardan uzoqroq-dagi simobli termometrlar yordamida o'chanadi.

## III.Tajribani bajarish tartibi.

Ishning nazariy asoslari va tajriba qurilmasi bayoni bilan tanishgach, kuzatishni yozib borish uchun bayon nomma shaklini tayyorlash kerak (3-ilova) va o'chanov asboblari to'g'ri ulanganligini tekshirib ko'rish lozim. Sxemani o'qituvchi bilan tekshirgach, tajribani bajarishga kirishish mumkin.

Barcha o'lcovlar barqaror issiqlik holatida amalga oshiriladi. Ushbu holat vaqt o'tishi bilan o'lcov asboblari ko'rsatkichlari o'zgarmasligi bilan ifodalanadi va u qurilmada 30-40 minutlar o'tgach qaror topadi.

Barqaror issiqlik holati qaror topgach, shu barqaror holat har 6-10 minutda barcha asboblar ko'rsatkichlarini 3-4 marta yozib olish lozim. Qurilmaning ish holati kamida 4 marta o'zgartiriladi. Qurilmani ulash va uning ish holatini o'zgartirish o'qituvchi bilan amalga oshiriladi.



7.1-rasm. Tajriba qurilmasining umumiyo ko'rinishi.

#### IV. Hisoblash tartibi.

Tajriba quvuridan atrofdagi havoga konveksiya usulida issiqlik berilishi quyidagi tenglikdan aniqlanadi:

$$Q_K = Q_0 - Q_N, \quad Vt \quad (7.2)$$

bu yerda:  $Q_0 = I \Delta U$  – quvur ichidagi elektr isitgichdan ajralgan to'liq issiqlik miqdori,  $Vt$ ;

$I$  – tok kuchi,  $A$ ;

$\Delta U$  – kuchlanishni pasayishi,  $V$ ;

$Q_N$  – quvurdan nurlanish usulida issiqlik miqdorining ajralishi,  $Vt$ .

$$Q_N = S_K \left[ \left( \frac{T_{KC}}{100} \right)^4 - \left( \frac{T_v}{100} \right)^4 \right] F, \quad vt \quad (7.3)$$

bu erda:  $S_K$  – keltirilgan nurlanish koeffisienti,  $Vt/m^2 K^4$ .

Atrofdagi jismlar sirti tajriba quvuri sirtidan bir necha barobar katta, shuning uchun keltirilgan nurlanish koeffisientini tajriba quvurining nurlanish koeffisientiga teng deb olish mumkin.

$$S_K = S = 4,25 \text{ Vt/m}^2 \text{K}^4. \quad (7.4)$$

$T_{k,s}$ ,  $T_m$  – tajriba quvuri sirtining va atrof muhitning mutloq harorati.

Tajriba quvuri haroratini hisoblash uchun sakkizta nuqtada o‘lchanan qiymatdan o‘rtachasini olamiz.

(1) tenglikdan qurilmaning kamida to‘rt rejimda ishlashidagi qiymatini hisoblab grafik chizamiz.

$$\alpha = f(t_{k,s} - t_s) \quad (7.5)$$

Olingan grafik bog‘liqlik faqat tadqiqot qilinayotgan tajriba quvuri uchungina o‘rinli.

Tajriba natijalarini boshqa quvurlarga ham tadbiq qilish uchun hisoblash natijalarini mezon bog‘liqliklar yordamida umumlashtirish lozim bo‘ladi.

$$Nu_{S,d} = f(Gr, Pr)_{S,d}, \quad (7.6)$$

Bu erda:  $Nu = \frac{\alpha d}{\lambda}$  - Nusselt mezoni;

$Gr = \frac{g \beta \Delta t d^3}{\gamma^2}$  - Grasgof mezoni;

$Pr = \frac{\gamma}{a}$  - Prandtl mezoni;

$\lambda$  - havoning issiqlik o‘tkazuvchanlik koeffisienti,  $\text{Vt/m K}$ ;

$a$  - havoning harorat o‘tkazuvchanlik koeffisienti;  $\text{m}^2/\text{s}$ ;

$\gamma$  - havoning kinematik qovushqoqlik koeffisienti,  $\text{m}^2/\text{s}$ ;

$\Delta t$  - haroratlar farqi;  $^{\circ}\text{C}$

$\beta = \frac{1}{t_m + 273}$  – havoning hajmiy kengayish koeffisienti,  $\text{K}^{-1}$ ;


$g = 9,811$  – erkin tushish tezlanishi,  $\text{m}^2/\text{s}$ ;

Fizik parametrlar ( $\lambda$ ,  $a$ ,  $\gamma$ ,  $\beta$ ,  $Pr$ ) jadvaldan xonadagi havoning harorati bo‘yicha olinadi.

Qurilmaning har bir holatiga olingan o‘xshashlik mezonlari qiymatlarini logarifmik koordinatalar sistemasidagi grafikka kiritiladi.

Olingan to‘g‘ri chiziq tenglamasi quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi:

$$\lg Nu_{S,d} = \lg C + n \lg (Gr, Pr)_{S,d} \quad (7.7)$$



7.2-rasm

Daraja ko'satkichni to'g'ri chiziqning va abssissa o'qiga burchak tangensining qiyaligi bo'yicha aniqlanadi, doimiylik C esa to'g'ri chiziqning istalgan nuqtasi uchun quyidagi nisbatdan aniqlanadi:

$$C = \frac{Nu_{c,d}}{(Gr \cdot Pr)_{c,d}} \quad (7.8)$$

$$n = \operatorname{tg} \varphi$$

### V. Tajriba natijalarini yozish uchun jadvali.

7.1-jadval

№	J, A	$\Delta U$ , V	Q, Vt	$t_1$		$t_2$		$t_3$		$t_4$		$t_5$		$t_6$		$t_7$		$t_8$		$t_{11}$		$t_{12}$	
				m	V	m	V	m	V	m	V	m	V	m	V	m	V	m	V	m	V	m	V
1																							
2																							
3																							

### VI. Ish bo'yicha hisobot.

Hisobot quyidagilardan iborat bo'lishi kerak:


1. Ishning qisqacha tavsifi.
2. Qurilmaning prinsipial şxemasi.
3. Havoning erkin harakatlanganda issiqlik berish koeffisientini aniqlash laboratoriya qurilmasi prinsipial sxemasini chizish.

### VII. Nazorat savollari.

1. Qanday izolyasiya materiallarini bilasiz?
2. Izolyasiya materiallarining qaysi parametrlari muxim?

3. Izolyasiya materiallarining issiqlik berish koeffisienti qanday bo‘lishi lozim?
4. Yana qanday qatlamlarda amalga oshirish mumkin?
5. Issiqlik o‘tkazuvchanlik koeffisienti nimalarga bo‘gliq?

**Illova-1**



Havoning erkin harakatlanganda issiqlik berish koeffisientini aniqlash bo‘yicha EHMda yaratilgan dasturiy mahsulot.

## **8-LABORATORIYA ISHI. YO'LAKLI JOYLAGHGAN QUVURLAR BOG'LAMIDAN KO'NDALANG OQIMNING ISSIQLIK BERISH Koeffisiyentini aniqlash**

**Ishning maqsadi:** Ko'ndalang quvurlar bog'lamidan oqib o'tayotgan gazlarning issiqlik berish nazariyasi bo'yicha olingen bilimlarni mustahkamlash va tajriba olib borishda ko'nikmaga ega bo'lish.

1.Yo'lakli joylashgan quvurlar bog'lamidan ko'ndalang oqimning issiklik berish koeffisient kattaligini aniqlash va havo oqimini tezlikdan o'zgarish qonuniyatini o'rnatish.

2.Tajriba natijalarini qayta ishlash va ularni umumlashtirilgan holda berish.

**Tayanch iboralar:** issiqlik berish, quvurlar to'plami, termojuft, kalorifel, harorat gradient, harorat maydoni, ekvivalent diametr.

**Kerakli jihozlar:** Izolyatsion materialning issiqlik berish koeffisiyentini aniqlash uchun qurilma chizmasi, ish prinsipini o'rganish uchun taqdimot shaklida videoroliklar.

**Taqdimotning bir necha slaydlari ilovada keltirilgan.**

**Tajriba ishini bajarish uchun quyidagi adabiyotlar bilan tanishib chiqish kerak:**

1.Alimova M.M., Mavjudova Sh.S., Isaxodjayev X.S., Raximjonov R.T., Umarjonova F.Sh. «Issiqlik texnikasining nazariy asoslari» fani dan tajriba ishlari to'plami. Uslubiy qo'llanma., I-qism.-T.: TDTU, 2006.

2. Umarjonova F. Sh., Isaxodjaev X. S., Mavjudova Sh. S., Alimova L., O., Axmatova S. R. "Issiqlik texnikasi" fanidan laboratoriya ishlari to'plami. Uslubiy qo'llanma. – Toshkent, ToshdTU. 2014 - 94 b.

**Ishning davomiyligi – 4 soat.**

### **I. Umumiyligi**

Reynoldsning kichik sonlarida (birga tengligida) suyuqlik oqimi bilan quvurlar sirtining uzluksiz yuvilishi kuzatiladi. Reynoldsning katta sonlarida esa faqat yuza qismi bir tekisda yuviladi. Quvurlarning ortki qismida, sirdan suyuqlikni chegaradosh qatlaming siljishi tufayli, murakkab uyurmali harakat vujudga keladi. Shu sababli silindrning perimetri bo'yicha issiqlik berishi shiddatliligi tekis bo'ladi. Quvur bog'laming issiqlik berish quvur diametriga, ularning ko'ndalang va

bo‘ylama qadamiga, quvurlar jamlanishiga, suyuqliknining haroratiga va fizik xususiyatlari bo‘lgan yuvilishida.

Suyuqlik oqimi quvurlar bog‘lamining ko‘ndalang yuvilishida issiqlik berish sharoitlari mezonli bog‘liqlik bilan ta’riflanadi:

$$\overline{Nu} = f(Re, Pr, \frac{S_1}{d}, \frac{S_2}{d}, n) \quad (8.1)$$

bunda:

$$Nu = \frac{\overline{ad}}{\lambda}; Re = \frac{wd}{\gamma}; Pr = \frac{\gamma}{\alpha}; \quad (8.2)$$

$\overline{ad}$  – n qatori uchun o‘rtacha issiqlik beruvchanlik koeffisienti,  $Vt/m^2K$ ;

d – quvur diametri, m;

W – bog‘lamning toraygan kesimidagi suyuqlikning harakat tezligi, m/s;

$\alpha$  – suyuqlikning issiqlik beruvchanlik koeffisienti,  $Vt/m^*K$ ;

$\frac{S_1}{d}, \frac{S_2}{d}$  – quvurlar orasidagi bo‘ylama va ko‘ndalang nisbiy qadamlar;

n – to‘plamdagagi quvurlar qatori soni.

Nisbiy qadamlar berilgan quvurlar to‘plami uchun doimiy kattalik ekanligini hisobga olamiz:

$$\frac{S_1}{d} = const, \quad \frac{S_2}{d} = const. \quad (8.3)$$

Havo uchun harorat kam o‘zgarganda  $Pr=const$  deb olsak, bog‘liqliki soddalashtirish mumkin:

$$\overline{Nu} = f(Re)^n \quad (8.4)$$

$$\overline{Nu} = sRe^n \quad (8.5)$$

Tajriba ko‘rsatkichlariga asoslanib, o‘rtacha issiqlik beruvchanlik koeffisientini quyidagi tenglikdan aniqlaymiz:

$$\alpha = \frac{Q_k}{F(t_c - t_s)}, \quad Vt/m^2 K \quad (8.6)$$

bu erda  $Q_k = F$  yuzali uchinchi qatorning bitta quvuridan konveksiya usulida berilayotgan issiqlik miqdori,  $Vt$ ;

F – quvur sirti yuzasi,  $m^2$ ;


$t_s$  – issiqlik almashinuv yuzasi harorati,  $^0C$ ;

$t_m$  – muhit (havo) ning harorati,  $^0C$ .

## II. Tajriba qurilmasining bayoni.

Quvur to‘plamining issiqlik berishini aniqlash tajriba qurilmasi (8.1-rasm) aerodinamik quvur 1, yo‘lakli joylashgan quvurlar bog‘lami

